

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
rektori S.G'.Siddiqovanning institutda O'quv-uslubiy ishlar, ta'lim sifatini  
oshirish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish, o'quv rejalari va fan  
dasturlarini takomillashtirish, ilmiy ishlar va innovatsiyalar, ma'naviy va  
ma'rifiy ishlar, sport va tarbiya, moliya-iqtisod ishlari bo'yicha 2023-yil  
(sentyabr-dekabr) davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida**

**HISOBOTI**

**Buxoro-2024**

## MUNDARIJA

<b>I</b>	<b>O'QUV-USLUBIY ISHLAR.....</b>	<b>3</b>
<b>II</b>	<b>ILMIY ISHLAR VA INNOVATSIYALAR.....</b>	<b>9</b>
<b>III</b>	<b>MA'NAVIY VA MA'RIFIY ISHLAR, SPORT VA TARBIYA</b>	<b>21</b>
<b>IV</b>	<b>MOLIYA-IQTISOD ISHLARI.....</b>	<b>33</b>

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori S.G'.Siddiqovanning  
2023-yil (sentyabr-dekabr) davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida  
HISOBOTI**

**I. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-yanvar kungi 03/24-15-01-01-sonli xatida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan O'quv-uslubiy ishlar, ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish bo'yicha 2023-yil (sentyabr-dekabr) davomida bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumot**

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi qarori asosida yangi 2023/2024 o'quv yilida qabul kvotasi shakllantirilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari tayanch va turdosh OTMLar tomonidan kelishilgan holda qayta ishlab chiqilgan. Jumladan, bu borada institutdagi mavjud **27 ta mutaxassislik** kafedralari qator davlat OTMLari bilan hamkorlikda **56 ta bakalavriat** ta'lim yo'nalishlari kunduzgi ta'lim shakli, **35 ta sirtqi ta'lim** shakli va **22 ta magistratura** mutaxassisliklari uchun "Malaka talablari" va o'quv rejalari ishlab chiqilib, 2023-yil 31-avgust kuni bo'lib o'tgan institut Kengashida tasdiqlandi. Joriy yil qabuli bo'yicha 1-kurs **45 ta bakalavriat** ta'lim yo'nalishlari va **23 ta magistratura** mutaxassisliklari uchun o'quv rejalari "Malaka talablari" asosida qayta ko'rib chiqildi va yangi 2023/2024 o'quv yili uchun tayyorgarlik ishlari yakuniga yetkazildi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektorning yangi o'quv yili uchun "Yo'l xaritasi" loyihasi tayyorlangan bo'lib, "Yo'l xaritasi" 2023-yil 31-avgust kuni Institut kengashi tomonidan tasdiqlangan.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 31-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligini munosib nishonlash, 2023-2024 o'quv yilida institut jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar hamda 2023/2024 o'quv yilida institutda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlarni tasdiqlashga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari muhokama etildi. Shuningdek, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida tashkiliy-amaliy ishlarning olib borilishi, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston-2030» Strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabr, PQ-300-son, "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 21-dekabr, PF-269-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son qarori, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktyabr, PF-5847-son, “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 11-iyul, PQ-4391-sonli qaror va farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabr, 824-sonli qarorlari, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 26.08.2023 yil kuni tasdiqlangan “Yo‘l xarita”sining 1-bandi va boshqa ta‘limga oid hujjatlarda belgilab berilgan vazifalar yuzasidan o‘quv jarayonini samarali tashkil etish choralari ko‘rish maqsadida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektorining 2023-yil 11-oktabrdagi **312-U-sonli** buyrug‘iga muvofiq kredit-modul tizimini raqamlashtirish va o‘quv jarayoni shaffofligini ta‘minlash, talabalar kontingenti bilan shug‘ullanish, dekanatlarning tegishli funksiyalari, kadrlar bo‘limi, qabul bo‘limi va hisobxona kabi bo‘linmalar faoliyatini markazlashgan holatda tashkil etish maqsadida O‘quv-uslubiy boshqarma tarkibida “Akademik faoliyat va ta‘lim normativ ta‘minoti”, “Malaka oshirish va talabalar amaliyotini tashkil etish”, “Ta‘limning kredit tizimini boshqarish” hamda “Ofis registrator va talabalar bilan ishlash” mexanizmlari tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

2023-2024 o‘quv yili boshidan bugungi kungacha “Ofis registrator va talabalar bilan ishlash” mexanizmga talabalar, ularning ota-onalari, professor o‘qituvchilar tomonidan 2200 dan ortiq murojaatlar qabul qilingan va ularning 2120 tasi ijobiy hal qilingan qolgan murojjatlar qo‘shimcha o‘rganishlar talab qilinishi inobatga olinib soha mutaxassislariga yuborilgan. Qolaversa akademik qarzdor talabalarning murojaatlari asosida institut rektorining tegishli buyrug‘i asosida “Qayta o‘qish”lar tashkillashtirib talabalarning akademik qarzdorliklari bartaraf qilinmoqda.

Sentyabr oyida Polsha davlati Lodzinskiy texnologiya institutining vakillari Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bo‘ldi. Tashrifdan asosiy maqsad xalqaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bilan bir qatorda Polsha oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish shart-sharoitlari yuzasidan ma‘lumotlar taqdim etishdan iborat bo‘ldi. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori Sadoqat Siddiqova bilan bo‘lib o‘tgan suhbatda mehmonlar Erasmus+ doirasida Kimyo va kimyo texnologiyalari doirasida professor o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi, ularning qo‘shma ilmiy tadqiqotlar olib borishi, ilmiy maqolalar chop ettirishi va hokazo vazifalar doirasida hamkorlik qilish maqsadga muvofiqligini ta‘kidlashdi.

Uchrashuvda jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasasi bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish va tajriba almashinuvini samarali yo‘lga qo‘yish orqali ta‘lim sifatini yanada oshirish va xalqaro darajaga yetkazish borasida kelishib olindi.

15-sentyabr kuni Buxoro muhandislik-texnologiya institutiga Rossiya Federatsiyasining "Univer onlayn" IT kompaniyasi rahbari Elfiya Nazipovna va Senator Nurmuhammad Achilov tashrif buyurib, rektor Sadoqat Siddiqova bilan muzokara olib borishdi. Muzokora davomida institutga bir necha xorijiy tillarda 24/7 rejimida faoliyat olib boruvchi onlayn ta‘lim platformani joriy qilish va ushbu platforma orqali xorijiy professor-o‘qituvchilarni ta‘lim tizimiga onlayn jalb qilish, tekstil sohasining moda yo‘nalishida mahalliy kadrlar tayyorlash, institut tarkibida virtual laboratoriyalarni tadbir

etishni taklif qilishdi. Shuningdek muzokara davomida Senator Nurmuhammad Achilov tomonidan G'ijduvon tumanidagi "Parvoz Xumo Ravnaq Trans" MChJ klasteriga Buxoro muhandislik-texnologiya instituti talabalarini dual ta'lim tizimi asosida jalb qilish taklifi ham berildi.

15-sentyabr kuni institut faollar zalida "Uzbekistan GTL" kompaniyasi mutaxassislari bilan institut mas'ullari hamda texnika yo'nalishidagi talaba va magistrlar o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Ushrashuvda iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "UzGTL stipendiyalar dasturi-5" tanlovi hamda "Eng fidoyi ustoz II" tanlovining ikkinchi bosqichiga start berilganligini ma'lum qilishdi. Stipendiya g'oliblari tanlov asosida aniqlanadi. Tanlov 3 bosqichda amalga oshirilib: birinchi bosqichda ishtirokchilar dastlab ro'yxatdan o'tadi (15 sentyabr-15 oktyabr); ikkinchi bosqichda test yoki yozma imtihon bo'lib o'tadi (20 oktyabr-15 noyabr); uchinchi bosqich esa suhbat asosida o'tkaziladi (20 noyabr-14 dekabr).

19-sentyabr kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari Shahlo Turdikulova Buxoro muhandislik-texnologiya institutining o'quv amaliyot laboratoriya xonalarini ko'zdan kechirib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan tanishib chiqdi. Shuningdek, mazkur ta'lim muassasasida mavjud shart-sharoitlar, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari hamda qabul jarayoni qanday o'tgani bilan ham qiziqdi. Vazir o'rinbosari mavjud vaziyat bilan yaqindan tanishar ekan, muassasa faoliyatini yanada takomillashtirish, yangi o'quv yilida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim masalalar yuzasidan zarur ko'rsatma va takliflarini berib o'tdi. Shuningdek, o'qituvchilar bilan muloqotda bo'lib zamonaviy fanlarni ta'lim dasturiga joriy etish bo'yicha tavsiyalar berdi.

30-sentyabr kuni "Ijro intizomi – samaradorlik omili" mavzusida seminar-yig'ilish tashkil etildi. Seminar-yig'ilishda barcha sohalarda hujjatlar bilan ishlashni to'g'ri tashkil etish va ijro intizomini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilishi, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qaror va topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash hamda ijro intizomini mustahkamlash yuzasidan barcha darajadagi mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Yig'ilish so'ngida ijro intizomiga mas'ul xodimlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olish asnosida, o'z taklif va mulohazalarini ham bildirib o'tdilar.

4-oktyabr kuni Buxoro muhandislik-texnologiya institutiga Qo'shma Ta'lim Dasturi bo'yicha hamkorimiz Malayziyaning Linkoln Universiteti vakili - Xalqaro Mobillik Hamkorligi bo'yicha dekan Rashid Abdusalam tashrif buyurdi. Tashrifning birinchi qismida Rashid Abdusalam hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor A'zam Alimov institutda yo'lga qo'yilgan Qo'shma Ta'lim Dasturini rivojlantirish istiqbollarini muhokama qildilar. So'ngra esa Rashid Abdusalam Qo'shma Ta'lim Dasturi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar bilan ochiq suhbat olib bordi va talabalarning Malayziyaga tashrifi doirasida imtiyozlari ya'ni viza, talabalar turar joyi va boshqa qonuniy asoslar bo'yicha ma'lumot berdi.

12-oktyabr kuni "LUKOIL" kompaniyasining kadrlar bo'limi boshlig'i Mishustin Igor Sergeyevich hamda inson resurslari bo'yicha bo'lim boshlig'i Almira Xasanovadan iborat delegatsiya institutga tashrif buyurdi. Tashrif davomida memorandum imzolash va ushbu memorandum yo'l-xaritasi muhokama etildi.

Institut rektori Sadoqat Siddiqova tomonidan ushbu korxonada faoliyatini targ'ib qilish hamda yaxshi kadr-mutaxassislarni jalb etish uchun "Lukoil kuni"ni tashkil etish taklifi berildi. Shuningdek, rektor tomonidan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida neft-gaz sohasidagi 3 ta kafedrada faoliyat yuritayotgan 80 nafar professor-o'qituvchilarning 10 nafari fan doktori, 20 nafari fan nomzodi va falsafa doktorlari ekanligiga to'xtalib, 4 ta bakalavr, 4 ta magistratura yo'nalishida 1098 nafar mutaxassis tayyorlanayotganligini, 13 nafar ilmiy izlanuvchilar hamda 1 ta ilmiy kengash mavjudligi haqida ma'lumot berildi.

Institutda 2023-2024 o'quv yili kuzgi semestrda talabalarning bilimni baholash, yakuniy nazorat ishlarini shaffof va xolisona o'tkazilishini ta'minlash maqsadida bosh bino 1-axborot resurs markazida jami 105 ta, 2-axborot resurs markazida jami 95 ta kompyuter texnika vositalari bilan jihozlangan "imtihon zallari" tashkil qilindi.

Fakultet dekanlari va o'quv-uslubiy boshqarma tomonidan yakuniy nazorat grafik jadvallari tayyorlanib, o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlandi. Mazkur reja-grafiklar asosida yakuniy nazoratlar tashkil etilmoqda. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, o'quv-uslubiy boshqarma va Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi mas'ul xodimlari ishtirokida nazorat ishlari tashkil etildi.

Institutda korrupsiyani oldini olish xavf-xatarlarni kamaytirish professor-o'qituvchilar va talaba yoshlarda korrupsiya illatiga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish maqsadida OTMda 2023 yil davomida talabalar axborot soatlarida muntazam ravishda 100 (yuz) marotabadan ortiq tushuntirish-profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Shundan 60 ta tadbirda 3000 nafar talaba va 40 ta tadbirda 800 nafar professor-o'qituvchilar va pedagog-xodimlar ishtirok etishdi. Korrupsion holatlarni targ'ibot qilish uchun talabalar tomonidan o'tkazilgan tanlovlarda kelib tushgan ijodiy ishlar natijasida 10 video rolik tayyorlangan. Shuningdek, "Korrupsiyadan xoli jamiyat" mavzusida 1 marta ilmiy seminar o'tkazilgan.

Oliy ta'lim tizimiga "Elektron kutubxona" platformasini joriy etish va doimiy faoliyatini ta'minlash to'g'risida"gi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-iyul 225-sonli buyrug'i ijro uchun qabul qilindi. Ushbu buyruqqa asosan institutning 2022-yil 19-iyul 248-I sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Ushbu buyruqqa asosan 2022-yilning 1-avgustidan boshlab ARM fondidagi barcha darslik va o'quv qo'llanmalar asosida ARMning elektron resurslar bazasi shakllantirilib, "Elektron kutubxona" platformasiga joylashtirib borildi. Oliy ta'lim muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi "unilibrary.uz" platformasidan institut o'qituvchi va professorlar, talabalarning foydalanishlarini tashkil etish maqsadida har bir o'quv zallari peshtoqida tablolar tashkil etildi. Shuningdek platformaga kiritilgan elektron nashrlarning kompyuter xotirasida UDK va BBK bo'yicha joylashtirilib, to'liq matnli elektron nashrlarning bazasi to'ldirib borilmoqda. Skaner qilingan va PDF shaklga o'tkazilgan darslik va o'quv qo'llanmalarining ro'yxatlari tuzilib, statistik hisobotlari har oyning 25-sanasida vazirlikka taqdim etilib borildi. Umumiy fond tarkibi 2023-yil yakuni bo'yicha umumiy fond: 21899 nomda, 217433 nusxada shundan o'quv adabiyotlar fondi - 6623 nomda, 163533 nusxada, ilmiy adabiyotlar fondi - 2705nomda, 8723 nusxada, badiiy adabiyotlar - 11297 nomda, 13690 sonda xorijiy adabiyotlar -182 nomda, 2173 nusxada boshqa adabiyotlar -1092 nomda, 29314 nusxada shundan elektron-10030 nomda.

Barcha yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha 1-bosqichdan 4-bosqichgacha bo'lgan talabalarning (tanishuv, malakaviy, bitiruv oldi) amaliyotlari Respublika va

viloyatdagi 600 dan ortiq korxonalar, tashkilot va kompaniya ( “Oltin boshqoq Buxoro” MChJ, “Parvoz xumo ravnaq trans” MChJ, “IT-park Bukhara” MChJ, “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MChJ, “Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi”, “Gazli magistrallar gaz quvurlari boshqarmasi” AJ, “Navoiyazot” MChJ, “Agrokimyohimoya”, “Sho‘rtan gaz-kimyohimoya majmuasi” MChJ, “Cotton textile” MChJ, “Kogondonmahsulotlari” AJ va boshqalar) bilan hamkorlik va amaliyot shartnomalari tuzilgan. Talabalar malakaviy amaliyotga yuboriladi. “Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi” xodimlari tomonidan amaliyot jarayonlari nazoratga olingan. Ishlab chiqarish korxonalariga borib, amaliyot olib borish jarayoni kuzatildi.

Kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ichki tartib qoidalar tasdiqlanib, institut xodimlarini tanishtirish bo‘yicha ishlar olib borildi. “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi qoshidagi “Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi” bilan hamkorlikda “Axborot xavfsizligi siyosati” me’yoriy-huquqiy hujjati ishlab chiqildi.

Buxoro viloyatining telekommunikatsiya tarmoqlari bo‘yicha professional kompaniyasi “Kristall Elektronika” MChJ bilan hamkorlikda institutning ma’lumotlar uzatish tarmog‘ini (lokal va internet tarmog‘i) modernizatsiya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, rektorga taqdim etildi. Magistrallar aloqa liniyalarini 1G texnologiyasidan 10G/20G/40G texnologiyasiga o‘tkazish, tarmoqni markazlashgan holda boshqarish dasturlarini (NETXMS, ZABBIX) joriy qilish, VLAN, DHCP Snooping, Loopback Detection funksiyalaridan foydalanish taklif etildi.

Institutning barcha binolarida joylashtirilgan barcha kompyuterlar va printer qurilmalari maxsus nakleykalar yordamida plonbalab chiqildi.

Institut xodimlari va talabalarining davomatini nazorat qilish va mehnat intizomini yanada yaxshilash maqsadida “Cyber Program” XK bilan “FaceID” tizimini joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 23-26 oktabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan “ICTWeek” AKT haftaligiga ishtirok etildi. AKT sohasidagi eng oxirgi yangiliklar bilan tanishildi.

Xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirishni yanada takomillashtirish maqsadida 10 nafar xodimlar Baofeng 888S rusumidagi radiostansiya (ratsiya) qurilmalari bilan ta’minlandi.

Institutning matbuot xizmati uchun kompyuter va boshqa qurilmalar xarid qilib olindi. (Ronin RS3, Camera Canon EOS R5, shtativ)

Joriy yilning 2-4 noyabr kunlari institutning sportzalida “Stritbol” bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirga kompyuter texnikalari o‘rnatilib, amaliy yordam ko‘rsatildi.

Videokuzatuv kameralariga tegishli videotasvirlarni uzoq muddatga saqlash maqsadida 4 ta NVR qurilmalariga umumiy sig‘imi 40 TB hajmdagi qattiq disklar (HDD) qurilmalari o‘rnatilib, videokuzatuv kameralari optimizatsiya qilindi.

Institutda kiberxavfsizlikni ta’minlash va o‘quv jarayonlarini kuzatib borish maqsadida 2-bino 2-qavatda alohida videokuzatuv xonasi tashkil etilib, 3 ta kompyuter va videokuzatuv kameralari bilan ta’minlandi. Barcha kafedra, dekanatlar va bo‘limlarida videomonitoring dasturlaridan foydalanishga cheklovlar o‘rnatildi.

Institutning ARMda o‘tkazilgan test sinovlari va olimpiadalarida texnik yordam ko‘rsatildi.

EDO.IJRO.UZ tizimidan foydalanishda kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida barcha tizim foydalanuvchilari OneID tizimiga o‘tkazildi. Barcha foydalanuvchilarga tushuntirish ishlari olib borildi.

Institutda jamoat xavfsizligini ta'minlash va videokuzatuv kameralari bilan qamrab olinmagan hududlarni bartaraf etish maqsadida 370 ta kamera qurilmalarini o'rnatish ishlari olib borildi. Institut hisobxonasi va ofis registratordagi kompyuter texnikalarini yangilash bo'yicha texnik takliflar ishlab chiqilib, rahbariyatga taqdim etildi. Buxgalteriya uchun 10 dona zamonaviy kompyuterlar xarid qilinib, sinovdan o'tkazildi.

Institutning rasmiy veb-sayti takomillashtirildi, jumladan sayt dizayniga o'zgartirishlar kiritildi, muloqot portali ishga tushirildi, barcha sahifalarni yangilash ishlari olib borilmoqda. Yangi "Rektorga murojaat" telegram boti ishlab chiqilib, ishga tushirildi. Institut 1-2 binolarining kompyuter va lokal tarmoq texniklari bilan ta'minlanganligi yuzasidan xatlov ishlari o'tkazildi.

2023-2024 o'quv yilida Belarus milliy texnika universiteti bilan hamkorlikda 2 ta yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 1 ta magistratura mutaxassisligi hamda yangi hamkor Belarus Respublikasining Polosk davlat universiteti bilan 2 ta yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 2 ta magistratura mutaxassisliklari ochilishiga erishildi.

Bugungi kunda institutimizda 2 kurs va 3 kurs bakalavr ta'lim yo'nalishlarida 62 nafar talabalar qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim olishmoqda (ilova qilinadi). Shuningdek, xorijiy OTMLar bilan birgalikda jami 281 nafar talabalar qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim olishmoqda.

Institutning kunduzgi ta'lim shaklida 46 nafar rus guruhleri tashkil etilgan bo'lib, ushbu guruhlarda 513 nafar turli millat vakillari tahsil olib kelmoqda. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha fan dasturlari va sillabuslar rus tilida tayyorlanib tasdiqlangan.

2022-2023 o'quv yilida institut bitiruvchilari soni 1319 nafarni tashkil etadi. Shulardan: sanoat va ishlab chiqarish sohasi bo'yicha 622 nafar, xalq ta'limi tizimida 55 nafar, oliy ta'lim tizimida 66 nafar, servis xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha 91 nafar, kasb-hunar maktablari va texnikumlarda 1 nafar, davlat boshqaruvi organlari bo'yicha 14 nafar, yakka tartibdagi tadbirkorlik, hunarmandchilik va boshqa sohalar bo'yicha shug'ullanuvchilar soni 14 nafar, qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida 41 nafar, qurilish sohasida 171 va transport sohasi bo'yicha 15 nafar, bank, soliq, va moliya organlariga 3 nafar va boshqa tarmoqlarda 42 nafar, o'qishni davom ettirayotganlar 18 nafarni jami 1153 nafar talabalar bandligi ta'minlanib, Hemis tizimida barcha ma'lumotlar joylashtirilgan. Bundan tashqari iqtisodiy faol bo'lmagan bitiruvchilar (ya'ni, dekret ta'tili (bola parvarishi)da bo'lganlar 71 nafarni, kasallik tufayli ishlayotganlar 1 nafarni hamda xorijiy davlatga chiqib ketganlar 9 nafarni) 81 nafarni tashkil etmoqda. Bandligi ta'minlangan talabalar statistika bo'yicha **94 foizni** tashkil qilmoqda.

2023 yilda 229 nafar magistratura bitiruvchilaridan 32 nafari oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmoqda. 19 nafar bitiruvchilar doktoranturaga o'qishga kirdi, 38 nafar i mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda. Jami 82 (35,8%) nafar magistratura bitiruvchilari ilmiy-pedagogik faoliyatga jalb qilingan.



## **II. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-yanvar kungi 03/24-15-01-01-sonli xatida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha 2023-yil (sentyabr-dekabr) davomida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan yutuqlar to‘g‘risida ma’lumot**

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ilmiy-tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, iqtidorli yoshlar bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish faoliyatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 696-sonli “Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-maydagi “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 302-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-oktabrdagi “Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi 839-sonli qarori hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilab berilgan ustivor vazifalar asosida amalga oshirildi.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida asosiy shtatda 611 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatishadi. Shundan 37 nafari fan doktorlari professorlar, 223 nafari dotsent, fan nomzodlari, falsafa doktorlari bo‘lib ilmiy salohiyat 42,5 % ni tashkil etadi.

Institutning Oliy ta’limdan keyingi ta’limida (DSc va PhD) ilmiy darajalariga ega bo‘lish uchun 3 ta bosqichda 30 ta ta’lim yo‘nalishlarida jami 6 nafar doktorant, 175 nafar tayanch doktorant, 6 nafar stajor-tadqiqotchi, 61 nafar (DSc va PhD) mustaqil izlanuvchilar tahsil olmoqda.

Joriy yilda 50 ta tadqiqotchilar (48 nafari PhD va 2 nafar DSc) dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilib, ilmiy darajali diplomlarga ega bo‘lishdi, 12 nafar olimlarimiz dotsentlik va professorlik ilmiy unvonlarini qo‘lga kiritishdi.

Institutda mavjud 8 ta fakultet, 36 ta kafedra professor-o‘qituvchilari oliygohda ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkillash uchun mamalakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlaydigan fanning ustivor yo‘nalishlariga mos oliygohda ilmiy salohiyatli kadrlar tayyorlashning 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlari rejasi tuzilgan, shuningdek, kafedralar kesimida ilmiy salohiyatni oshirish bo‘yicha yo‘l xarita tuzilgan, shuningdek, institut Kengashi yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, tasdiqlangan.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari 11 ta ustivor yo‘nalishga umumlashtirilgan bo‘lib, halqaro ilmiy-tadqiqot dasturlari, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida fundamental va amaliy ilmiy-texnika tadqiqotlari, innovatsion loyihalar, startup, spin-off, drayver loyihalari, xo‘jalik shartnomalari va

professor-o‘qituvchilarning shaxsiy ish rejaları asosidagi ilmiy ishlarining yig‘indisidan iborat.

## Institut tomonidan amalga oshirilgan xalqaro grantlar

№	Shartnoma nomi	Davlat	Tashkilot	Muddati
1.	“101083216 – ECAMPUZ – ERASMUS-EDU-2022-CBHE: European World Talent Camp for Uzbekistan Scientists in Food Science and Technology/ Oziq-ovqat fanlari va texnologiyasi bo‘yicha O‘zbekiston olimlari uchun Yevropa jahon iqtidorlar kampusi”	Daniya, Ispaniya, O‘zbekiston	Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturi	2023-2025 (65396 yevro)
2.	101082221 – UzMedEn – ERASMUS-EDU-2022-CBHE New master’s degree and training course programs in the field of medical engineering in Uzbekistan/ O‘zbekistonda tibbiyot muhandisligi sohasida yangi magistratura va o‘quv kurslari dasturlari	Latviya va Litva	Latviya va Litva texnika universitetlari	2023-2025 (55233 yevro) 2023yil-17398 yevro

## Instituti tomonidan amalga oshirilgan «drayver» innovatsion loyihalar

T/r	Loyiha (yo‘nalish) nomi	Texnologiya / mahsulot nomi	Loyiha qiymati	Muddat
1	Suyuq shisha asosida natriy silikat pentagidratini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	Natriy silikat pentagidratini ishlab chiqarish texnologiyasi	1 300,0	2023 2024
2	Charm chiqindilaridan poyabzal sanoati uchun charm-karton ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	Charm-karton ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	2 015,0	2023 2024
3	Buxoro viloyati sharoitida parrandachilik chiqindilaridan biogaz va biogumus olish reaktor qurilmasini ishlab chiqish	Parrandachilik chiqindilaridan biogaz va biogumus olish reaktor qurilmasi	800,0	2023 2025
4	Energiya samaradorligini nazorat va boshqarishning avtomatlashtirilgan dasturiy-axborot ta‘minotini yaratish	Energiya samaradorligini nazorat va boshqarishning avtomatlashtirilgan dasturiy-axborot ta‘minoti	400,0	2023
5	Ikkilamchi chiqindi xom-ashyolar asosida ekspluatatsion xossalari yaxshilangan polimer kompozitsiyalar yaratish	Quyma poyabzal tagliklarini ishlab chiqarish	50	2023

## Institut tomonidan amalga oshirilgan “drayver” innovatsion loyihalar

T/r	Loyiha (yo'nalish) nomi	Texnologiya / mahsulot nomi	Loyiha qiymati	Muddat
1	Korxonalar uchun “Mikroo'g'itlar” konsentratini ishlab chiqarish bo'yicha “Muxammadali bio Ziroat” MChJ innovatsion korxonasini tashkil etish	zamonaviy issiqxonalar uchun mikroo'g'it konsentratini ishlab chiqarish	60,0	2023 2024
2	Tabiiy gaz tarkibiga qo'shiluvchi odorant moddasini ishlab chiqarish texnologiyasini yo'lga qo'yish.	Odorant moddasini ishlab chiqarish	1 000,0	2023 2024
3	Charm chiqindilaridan poyabzal sanoati uchun charm-karton ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	Charm-karton ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish	65,0	2023 2025
5	Ikkilamchi chiqindi xom ashyolar asosida ekspluatatsion xossalari yaxshilangan polimer kompozitsiyalar yaratish va ularasosida quyma poyafzal tagliklarini ishlab chiqarish bo'yicha “Compozit” MChJ innovatsion (spin-off) korxonasini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish		50,0	2023
	O'zbekistonga issiqxonalar uchun “Mikroo'g'itlar” konsentratini ishlab chiqarish bo'yicha “Muxammadali bio Ziroat” MChJ innovatsion (spin-off) korxonasi faoliyatini yo'lga qo'yish		50,0	

2023-yilda institutning 218 nafar magistratura mutaxassisligi bitiruvchilaridan 75 foizi ilmiy faoliyatga jalb etildi.

Magistrlar o'z ilmiy faoliyatini shaxsiy ish kalendar rejasi asosida amalga oshiradi. Shaxsiy ish kalendar rejalar institutning o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan.

Ilmiy faoliyat blokidagi ilmiy-pedagogik ish va ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash faoliyati bo'yicha bajargan amaliy ishlari aniq ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholanadi.

229 ta magistrlik dissertatsiyalaridan 40 tasi DAK tomonidan ilmiy faoliyatlarini davom ettirishga tavsiya etilgan bo'lsa, 52 tasi ishlab chiqarishga tadbiiq etish uchun tavsiya qilindi.

“Scopus”, “ScienceDirect”, “Web of Science” va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi jurnallarda 127 ta maqolalar nashr etildi.

“Scopus”, “ScienceDirect”, “Web of Science” va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kirishga tayyorlangan ilmiy jurnallar soni 4 ta.

Google scolarda “Xirsh” indeksi (h-indeks) 5 va undan yuqori bo'lgan professor o'qituvchilarning soni 158 tani tashkil etadi. “Scopus”, “ScienceDirect”, “Web of Science” 3 va undan yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilarning soni 10 tani tashkil etadi.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash maqsadida 2023-yilda jami 24 nafar, jumladan 19 nafar professor-o'qituvchilar, 4 nafar tayanch doktorant hamda 1 nafar stajor-tadqiqotchi xalqaro reytingda Top-1000 universitetlariga kiruvchi OTMlarda malaka oshirib stajirovka o'tashdi:

Institutning professor-o'qituvchilari tomonidan ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar soni – 21 ta. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar soni – 206 ta. Chop etilgan monografiyalar soni – 161 ta

Ilmiy anjumanlarni tashkil etish holati. Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan Respublika, vazirlik, OTM miqyosidagi ilmiy jurnallarda - 527 ta maqola, OAK ro'yxatiga kiritilgan va xalqaro miqyosidagi ilmiy jurnallarda 763 ta maqola nashr qilindi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 02.05.2023 yildagi 118-son buyrug'iga asosan tasdiqlangan 2023-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga ko'ra Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 5 ta xorijiy konferensiya, 3 ta respublika konferensiyasi hamda 1 ta forum yuqori saviyada o'tkazildi. Barcha konferensiya va forumda 500 dan ortiq nafar professor-o'qituvchilar va 165 nafar tadqiqotchi hamda 1000 dan ortiq iqtidorli talabalar ishtirok etishdi.

Bundan tashqari 50 nafardan ortiq professor-o'qituvchilar, 100 nafarga yaqin tadqiqotchilar, 40 dan ortiq iqtidorli talabalarning xorijiy nufuzli konferensiya, forum va simpoziumlarda ishtiroki ta'minlandi.

Oliygohta "InnoWeek-2023" innovatsion g'oyalar haftaligi doirasidagi rejalar jadvali tadbirlar o'tkazildi. "InnoWeek – 2023" Xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida bo'lib o'tgan Toshkent shahridagi "InnoWeek.Uz-2023" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligiga "Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi" kafedrasida tayanch doktorantlari, va o'qituvchilari o'zlarining ilmiy ishlanmalari bilan ishtirok etishdi.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida o'tkazilgan "Innoweek-2023" innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida faol ishtirok etgan hamkor tashkilotlar hamda planshet, maket va loyihalari bilan ishtirok etgan o'qituvchilar, doktorantlar va talabalar tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

Doktorantlar, tayanch doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar hamda stajor-tadqiqotchilar faoliyatini tizimli tarzda olib borishni ta'minlash maqsadida har chorakda monitoringi olib borildi. Monitoring natijalari yuzasidan hisobotlar olindi.

Institutda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi boshqarmasi boshlig'i Qodirova Fazilat Shukurovna bilan tayanch doktorant (PhD), doktorant (DSc), mustaqil izlanuvchilar hamda yosh tadqiqotchi olimlar bilan ochiq muloqot o'tkazildi.

Institutda ilmiy izlanishlar olib borayotgan bakalavr, magistr (talaba)larning va doktorantlar bilan dunyoning nufuzli oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot markazlarida hamda boshqa muassasalarda faoliyat yuritib kelayotgan vatandosh olimlar, shuningdek, xorijlik olimu-olimlar bilan onlayn muloqotlar tashkil etish hamda ularning hayot yo'li va ish tajribalari, jahon ilm-faniga qo'shayotgan hissasi bilan tanishtirildi. Kelajakdagi rejalar belgilab olindi.

Institutda tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan innovatsion ishlanmalar va milliy mahsulotlarning ko'rgazmalari o'tkazildi. Ko'rgazmada tadqiqotchilar o'zlarining loyiha, mahsulot va namunalari bilan ishtirok etishdi.

Institutda bo'lib o'tgan fakultetlararo "Balli qizlar" ko'rik tanlovida fakultetlarning faol, bilimli hamda chaqqon qizlari berilgan shartlarda o'z iste'dodlarini namoyon etishib, hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan adolatli baholandi. Dasturdan Xon atlas liboslari namoyishi, tadqiqotchilar, iqtidorli yoshlar tomonidan kuylangan qo'shiq va raqslar ham o'rin oldi.

O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi Respublikada eng yaxshi intellektual mulk obyektlarini aniqlash va huquq egalarini mukofotlash orqali ixtisoslik va ilmiy-texnikaviy ijodni rag'batlantirish, innovatsion faollikni oshirish, yangi texnika,

texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga ko‘maklashish hamda yoshlarni innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Start up – 2023” tanlovida talaba va tadqiqotchi yosh olimlarning ishtiroki ta‘minlandi.

“Ilm-fan sohasida xotin-qizlarni rolini oshirish yo‘llari” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi.

Institut innovatsion faoliyati yangiliklarini ommaviy axborot vositalarida, institut saytida, konferensiyalarda, yarmarkalarda, institut telegramm kanalida, bukletlar orqali targ‘ibot qilindi.

Viloyat markazlaridagi ziyoratgoh va qadamjolar, muzeylarga ilm-fan bilan shug‘ullanayotgan institutning bir guruh tayanch doktorantlari, mustaqil izlanuvchilarining sayohatlari tashkil etildi.

Mamlakatda innovatsion g‘oya va texnologiyalarni rivojlantirishga doir huquqiy-me‘yoriy hujjatlar loyihalarini shakllantirish, tegishli tegishli takliflarni taqdim qilish bo‘yicha o‘tkazilgan onlayn va oflayn seminar-treninglarida ishtirok etildi, ularning muhokamalarida qatnashib takliflar berildi.

Har yili o‘tkazib kelinayotgan “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘rik tanloviga nomzodlar saralab olindi, ular viloyat bosqichiga tavsiya etildi. Viloyatda faxrli o‘rinlar egallashdi.

Institutda “Eng yaxshi ilmiy-innovatsion loyiha” g‘oliblari taqdirlandi.

Institutida mavjud ilmiy markazlar faoliyatini kengaytirish hamda institut fakultetlari huzurida ilmiy markazlarni tashkil etish va samarali ishlarni amalga oshirish borasida istiqbolli chora-tadbir rejasini ishlab chiqildi.

“Iqtisodiyot” kafedrasida huzurida “Biznes va iqtisodiy tadqiqotlar” ilmiy markazi tashkil etilgan. Fakultet kengashining tavsiyasiga ko‘ra va kafedra pedagog-xodimlarining iqtidorli talabalar bilan darsdan tashqari bo‘sh vaqtlarida ishlash istaklarini inobatga olgan holda “Amaliy buxgalteriya+IS” o‘quv kursi olib borilmoqda. Shuningdek, “Iqtisodiyot” kafedrasida tashkil etilgan “Biznes va iqtisodiy tadqiqotlar” ilmiy markazi qoshida “Amaliy buxgalteriya+IS o‘quv kursi faoliyat yuritadi. Natijada 2023-yilda “Amaliy buxgalteriya+IS” o‘quv kursida 16 nafar tinglovchi tahsil oldi.

Shuningdek, institutning Energetika fakulteti huzurida mavjud 3 ta ilmiy markaz:

- Elektr mexanikasi va texnologiyalari kafedrasida huzurida tashkil qilingan “Avtomashtlashtirilgan elektr yuritmalarni loyihalash va sozlash” ilmiy-tadqiqot markazi o‘z Nizomi hamda rejasida ko‘zda tutilgan faoliyat bo‘yicha;

- Texnologik jarayonlarni boshqaruv tizimlari fakultetida ilmiy markazlar mavjud Menejment kafedrasida huzurida “Biznes inkubator” ilmiy markazi, TJBACT kafedrasida huzurida “Mexatronika ilmiy laboratoriya – bakalavr magistrilar bilan ishlash xonasi” va Iqtisodiyot kafedrasida huzurida “Biznes va iqtisodiy tadqiqot ilmiy markazi”;

- Neft-gaz fakulteti huzurida “Neft-gaz xomashyosi, mahsulotlari, chiqindilarini qayta ishlash va tahlil qilish” hamda “Neft-gaz kimyosi va texnologiyasi” ilmiy-innovatsion markazlar;

- Kimyoviy va oziq-ovqat texnologiyalari fakulteti Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi kafedrasida huzurida “Noorganik moddalar tarkibini fizik-kimyoviy va zamonaviy usullarda tadqiq qilish” ilmiy-tadqiqot markazi, Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi kafedrasida qoshida “Kimyoviy oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining tarkibini tahlil qilish, sinov taqqoslash, qiyoslash va nanotexnologiyalar” ilmiy markazlar ham o‘z faoliyatini samarali olib bordi.

Ilmiy markazda Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi va Organik moddalar kimyoviy texnologiyasi kafedralari, oziq-ovqat maxsulotlari texnologiyasi, Tabiiy polimerlar laboratoriyasi, “Paxta selyullozasi kimyosi va texnologiyasi”, “Polimerlar kimyosi va fizikasi”, Texnologiyalar va jihozlar ixtisosliklari yo`nalishidagi iqtidorli talabalar, tayanch doktarantlar, magistrlar va ilmiy izlanuvchilar organik moddalar va polimer kompozitsion materiallarining kimyoviy sintezi, energiya tejamkor va ekologik muammolari bilan bog`liq o`quv mashg`ulotlari va tadqiqotlarni amalga oshirish ishlari olib borilib, organik va noorganik moddalar, tabiiy, sintetik polimer kompozitsion materiallar, yog`lar, efir moylar, kosmetika, parfumeriya, oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibini ilmiy asoslash, sinov taqqoslash, qiyoslash va nanotexnologiyalar asosida mahalliy sanoat korxonalaridan buyurtmalar olish va ular asosida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish buyicha zamon talablariga mos keladigan kichik texnologiyalarini yaratish va bular bilan bog`liq bo`lgan tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Hozirgi kunda ilmiy markazda № 29-23 raqamli “Fenolformaldegid asosida olinadigan oligomerlarni MDF mebellari kompozitsiyasida qo`llash” mavzusidagi 20 000 000 (yigirma million) so`mlik xo`jalik shartnomasi asosida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Shuningdek olingan natijalar asosida “Qorako`l terilariga ishlov berishda sut mahsulotlari chiqindisini qo`llash va ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasini yakunlab kafedrada muhokamasiga taqdim etdi.

“Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” munosabati bilan “Jamiyatda ilm-fan, texnologiyalar va innovatsiyalarning barqaror rivojlanishida xotin-qizlarning o`rni” mavzusida o`tkaziladigan xalqaro forumda institutning olima ayollari va yosh olima qizlar, shuningdek, ko`plab tadqiqotchilarning ishtiroki ta`minlandi.

“Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” munosabati bilan o`tkazilgan “Olima va tadqiqotchi ayollar” tanlovda institutning bir qator professor-o`qituvchi ayollari va talaba qizlar ishtirok etishib, 5 nafar ayol o`qituvchi va doktorantlar hamda 1 nafar talaba “Eng yaxshi sanoat namunasi, “Eng samarali innovatsion loyiha”, “Yengil sanoat va to`qimachilik sohalaridagi yaxshi innovatsion loyiha”, “Xizmat ko`rsatish sohasidagi eng yaxshi innovatsion loyiha”, “Tadqiqotchilarning eng jonkuyar ustoz”, “Eng faol ixtirochi talaba qiz” nominatsiyalarini, ya`ni g`oliblikni qo`lga kiritishganliklarini alohida ta`kidlash joiz bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish vazirligi tomonidan o`tkazilgan sport musobaqasida tadqiqotchilar ishtirok etib 8 nafari nufuzli o`rinlarni egallab diplom va medallar bilan taqdirlandi. ([https://t.me/bmti\\_rasmiy](https://t.me/bmti_rasmiy))

Institut ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo`limi tashabbusi bilan ilmiy faoliyati namuna bo`layotgan ustoz-shogirdlar, iqtidorli talabalar hamda dissertatsiyalarini himoya qilgan yosh tadqiqotchilar uchun ichki turizm sayohatlari Samarqand shahriga sayohat tashkil etildi. ([https://t.me/bmti\\_rasmiy](https://t.me/bmti_rasmiy))

Toshkentda O`zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligida “Innovatsion ishlanmalarining Bahorgi Tijoratlashtirish Forumi” o`tkazilgan tadbirda oliygohning bir guruh tadqiqotchilari ishtirok etishdi. Ikki kun davom etgan Forum doirasida Oliy ta`lim muassasalarining ilmiy ishlanmalarini joriy etish maqsadida tegishli tarmoq korxonalarini bilan qator shartnomalar imzolandi. Mazkur forumda institutimiz doktorantlari o`zlarining innovatsion loyihasi bilan faol ishtirok etishdi. ([https://t.me/bmti\\_rasmiy](https://t.me/bmti_rasmiy)).



“Milliy-liboslar millat ko‘zgusi”, “Ilm-fan sohasida xotin-qizlarni rolini oshirish yo‘llari” mavzusida davra suhbatlarini o‘tkazildi.

Doktorantlar, tayanch doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar faoliyatini tizimli tarzda monitoringini olib borish va dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha diskurs o‘tkazildi.

Davlat ilmiy texnika dasturlari doirasida bajarilayotgan fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya dasturlari bo‘yicha loyihalar hisobotlarini qabul qilindi hamda monitoring olib borildi.

O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi Respublikada eng yaxshi intellektual mulk obyektlarini aniqlash va huquq egalarini mukofotlash orqali ixtisoslik va ilmiy-texnikaviy ijodni rag‘batlantirish, innovatsion faollikni oshirish, yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga ko‘maklashish hamda yoshlarni innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Start up - 2024” tanlovida talabalar va tadqiqotchilarning ishtiroki ta‘minlandi.

Xitoy oliy ta‘limi bo‘yicha o‘qitish metodikalarini o‘rganish, ko‘nikmalarga ega bo‘lish maqsadida 22-oktyabridan 4- noyabriga qadar institutning “Energetika” fakultetidan va “Neft-gaz texnologiyasi” fakultetidan 6 nafar professor-o‘qituvchi Xebey texnologiya va muhandislik kasb-hunar universitetida “Yangi energiya asosidagi transport vositalari” mavzusidagi dastur bo‘yicha malaka oshirish kursida ishtirok etishdi.

Viloyat hokimi Botir Zaripovning buxorolik faol yoshlar bilan uchrashuvida tayanch doktoratlar, doktorantlar va stajor-tadqiqotchilar ishtirok etishdi.

Arxitektura kafedrası tayanch doktoranti Murodjon Djurayev “Hokim va yoshlar” uchrashuvida madaniy meros obyektlari ustida tadqiqot olib borib, renavatsiyasini takomillashtirish uchun ularga kirish-chiqish hamda tadqiqot olib borish sharoit yaratib berish bo‘yicha taklifi bilan chiqdi.

8-mart “Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan Institutda Zakovat intellektual klubi tashabbusi bilan “Olima ayollar” hamda “Faol talaba qizlar” o‘rtasida turnir tashkil etildi. ([https://t.me/bmti\\_rasmiy](https://t.me/bmti_rasmiy))

2 va 3-bosqich tayanch doktoratlar, doktorantlar tomonidan ilmiy ishlari borasida savollar va takliflar berishdi.

Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi va Campus France agentligi vakili Sipriyan Lërua tashrif buyurib, talaba, magistr va doktorantlar bilan uchrashuv hamda Lërua tomonidan agentlikning grant dasturlarini namoyish qilish bilan ýtdi. Presentatsiya davomida Lërua institutimiz talabalariga Fransiyada grant asosida o‘qish bo‘yicha tushuntirishlar berdi. ([https://t.me/bmti\\_rasmiy](https://t.me/bmti_rasmiy))

Institutning doktorantlari va stajor-tadqiqotchilari bilan M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston Davlat universitetining bir qator professor-oq‘tuvchilari bilan birgalikda davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Tayanch doktorantlar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilarga dissertatsiya himoyalari, maqolalar chop ettirish, tadqiqotlarni joriy etish, akademik almashinuv to‘g‘risida fikr-mulohazalarini bildirishdi. Uchrashuv savol-javoblar ga boy boldi. ([https://t.me/bmti\\_rasmiy](https://t.me/bmti_rasmiy))

Institut ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘limi tashabbusi bilan ilmiy faoliyati namuna bo‘layotgan ustoz-shogirdlar, iqtidorli talabalar hamda dissertatsiyalarini himoya qilgan yosh tadqiqotchilar uchun ichki turizm sayohatlari Samarqand shahriga sayohat tashkil etildi. ([https://t.me/bmti\\_rasmiy](https://t.me/bmti_rasmiy))

Qolaversa, 2023-yil oliygohimizda navbatdagi xalqaro dissertatsiya – Rossiya Don davlat universiteti aspiranti himoyasi bo‘lib o‘tdi.

## **Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Xalqaro hamkorlik bo'limining tomonidan 2023 yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot**

11 sentabr kuni Polsha davlati Lodzinskiy texnologiya institutining vakillari Aleksandr va Tomash Manetskiy Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bo'ldi. Tashrifdan asosiy maqsad xalqaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish bilan bir qatorda Polsha oliy o'quv yurtlarida tahsil olish shart-sharoitlari yuzasidan ma'lumotlar taqdim etishdan iborat bo'ldi. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori Sadoqat Siddiqova bilan bo'lib o'tgan suhbatda mehmonlar Erasmus+ doirasida Kimyo va kimyo texnologiyalari doirasida professor o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, ularning qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borishi, ilmiy maqolalar chop ettirishi va hokazo vazifalar doirasida hamkorlik qilish maqsadga muvofiqligini ta'kidlashdi. Uchrashuvda jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasasi bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish va tajriba almashinuvini samarali yo'lga qo'yish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish va xalqaro darajaga yetkazish borasida kelishib olindi.

15 sentabr kuni Buxoro muhandislik-texnologiya institutiga Rossiya Federatsiyasining "Univer onlayn" IT kompaniyasi rahbari Elfiya Nazipovna tashrif buyurib, rektor Sadoqat Siddiqova bilan muzokara olib borishdi. Muzokora davomida institutga bir necha xorijiy tillarda hamda 24/7 rejimida faoliyat olib boruvchi onlayn ta'lim platformasini BuxMTI da joriy qilish orqali Tekstil sohasining moda yo'nalishida mahalliy kadrlar tayyorlash, institut tarkibida virtual laboratoriyalar joriy qilish va ushbu platforma orqali xorijiy professor-o'qituvchilarni BuxMTI ta'lim tizimiga onlayn jalb qilish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

10-15 sentabr kunlari Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Fizika" kafedrasini professorlari fizika-matematika fanlari doktorlari Mustaqim Jumayev va Mirzo Sharipovdan iborat delegatsiya Rossiya Federatsiyasi Dog'iston Respublikasidagi Rossiya Fanlar Akademiyasining Dog'iston filiali, Fizika institutida Rossiya Fanlar akademiyasining 300 yilligiga bag'ishlangan "Kondensatlangan muhitlarda fazaviy o'tishlar, kritik va nochizig'iy hodisalar" mavzusidagi XV Xalqaro anjumanda ishtirok etishdi.

15 sentabr – 4 oktabr kunlari Buxoro muhandislik-texnologiya instituti vakillari Institutning loyiha koordinatori Sh.Xodjiyev, "Texnologik jarayonlarni boshqaruv tizimlari" fakulteti dekani Sh. Hayitov, "Oziq-ovqat va kimyo sanoati mashinalari va jihozlari" kafedrasini dots.ntl L.Akabirova, "Texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrasini dotsenti U.Ibragimov Riga davlat texnika universitetida 2 haftalik treningda qatnashishdi. Vakillarimiz Erasmus+ dasturining "101082221 — UzMedEn — ERASMUS-EDU-2022-CBHE: New master's degree and training course programs in the field of medical engineering in Uzbekistan/O'zbekistonda tibbiyot muhandisligi sohasida yangi magistratura va o'quv kurslari dasturlari" grant loyihasida qatnashishdi.

21 sentabr kuni Buxoro muhandislik-texnologiya institutiga Amerika Qo'shma Shtatlarining Ball State University professorlari David J. Roof hamda Rachel Geesa va Emil Khisamutdinovlar tashrif buyurishdi. Delegatsiya a'zolari rektorimiz bilan Memorandum imzolash va Hamkorlikni yanada rivojlantirish taklifini berildi. So'ngra tashrif doirasida tadbir tashkil etildi. BuxMTI talabalariga Boll Davlat Universitetining



O'zbekistondagi AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan "UNITED" talabalar almashinuvi Loyihasi bo'yicha tanlov asosida 15 nafar O'zbekistonlik talabalarni 3 haftalik talabalar almashinuvi doirasida AQShga Boll Davlat Universitetiga tahsil olishi to'g'risida batafsil yoritib berishdi.

21-oktyabr kuni Belarusiya davlat informatika va radioelektronika universiteti (BGUIR) intellektual axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi - Ivashenko Valeryan Petrovich, Avtomatlashtirilgan tizimlarning axborot texnologiyasi kafedrasida katta o'qituvchilari - Protchenko Yekaterina Vladimirovna va Xadjinova Natalya Vladimirovnalardan iborat delegatsiya tashrif buyurdi. Tashrif davomida delegatsiya vakillari o'zlarining OTMlari va o'zlari to'g'risida ma'lumot berishdi. Bundan tashqari, ikki OTM o'rtasida keyinchalik Memorandumi imzolash, professor-o'qituvchilarning malaka oshirishi, stajirovka o'tashi va ilmiy ishlar bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish to'g'risida suhbat olib borildi.

BMTI delegatsiyasi Minsk shahrida o'tkazilayotgan O'zbekiston-Belarusiya Ta'lim Forumida qatnashmoqda. Ushbu forumda institut rektori Sadoqat Siddiqova Belarusiya Respublikasining 5 ta oliy ta'lim muassasasi bilan tajriba almashish, ilmiy izlanishlar olib borish, stajirovkalarni amalga oshirish, konferensiyalar va boshqa tadbirlarda o'qituvchilar, ilmiy xodimlar almashinuvini yo'lga qo'yish, akademik izlanishni rivojlantirish maqsadida magistrantlar va talabalar almashinuvini amalga oshirish borasida hamkorlik shartnomasini imzoladi.

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti hamda Belorus Milliy Texnika universiteti o'rtasida BMTI negizida Biotibbiyot muhandisligi bo'yicha BMTU-BMTI qo'shma ilmiy ishlab chiqarish markazi ochish, Ilmiy texnik loyihalarni tayyorlash va realizatsiya qilish, BMTI buyurtmasi asosida ilmiy ishlar olib borish, Qo'shma ilmiy hamkorliklar asosida olib borilgan loyihalar natijalarini o'quv jarayoniga moslashtirish va jalb qilish, Malaka oshirish va amaliyot dasturlarini BMTU va BMTI bazalarida olib borish rejalarini takomillashtirish, Qo'shma innovatsion g'oyalar asosida loyihalar tuzish va realizatsiya qilish, BMTU texnoparkining filialini BMTI negizida tashkil qilish borasida hamkorlik qilish bitimi imzolandi.

Forum doirasida Yevfrosiniy Polosk nomidagi Polosk davlat universiteti bilan Ilmiy- texnik hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shartnoma asosida magistratura yo'nalishi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish, Magistrlar va Aspirantlar o'rtasida stajirovka va malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda SCOPUS va WEB OF SCIENCE bazalaridagi jurnallarda Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va Yevfrosiniy Polosk nomidagi Polosk davlat universitetlarining ilmiy maqolalarini chop etish, Yevfrosiniy Polosk nomidagi Polosk davlat universiteti Buxoro muxandislik-texnologiya institutining 5 nafar yosh pedagog mutaxassislarini aspiranturaga va 2 nafarini doktoranturaga grant asosida qabul qilishi hamda universitetning 10 nafar professor – o'qituvchilarini Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ta'lim jarayoniga jalb qilish borasida kelishib olindi.

Xitoy oliy ta'limi bo'yicha o'qitish metodikalarini o'rganish, ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadida 22-oktyabridan 4- noyabriga qadar institutning "Energetika" fakultetidan va "Neft-gaz texnologiyasi" fakultetidan O'tkir Mirxonov, Maxsum Bozorov, Mirzohid G'afurov fakultet dekani t.f.d., katta ilmiy xodim Ruslan Hayitov, t.f.d. dots. G'ayrat Bozorov, tayanch doktorant Maksim Tsukanovlar Xitoyning Xebey texnologiya

va muhandislik kasb-hunar universitetida “Yangi energiya asosidagi transport vositalari” mavzusidagi dastur bo‘yicha malaka oshirish kursida ishtirok etmoqda.

30 oktabr kuni Buxoro muhandislik-texnologiya institutida “Amaliy fizika, axborot texnologiyalari va muhandislik” («Conference on Applied Physics, Information Technologies and Engineering») (APITECH-V-2023) V xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyada amaliy fizika va axborot texnologiyalari zamonaviy usullarini yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda, aerokosmik, energetika, kimyo va neft-gaz muhandisligi, mashinasozlik sohalarida qo‘llash, shuningdek, neyroinformatika zamonaviy yo‘nalishlarida, murakkab tizimlarni tadqiq qilish, chiziqli va statsionar bo‘lmagan hamda fazoviy turli jarayonlarni modellashtirish sohalarida qo‘llash bo‘yicha yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashildi.

30 oktabr kuni Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda Rossiya ilmiy va muhandislik jamoat birlashmalari ittifoqi Krasnoyarsk fan va texnikalar uyi o‘rtasida o‘qituvchi-professorlarning ilmiy faoliyatiga qulaylik yaratish, Scopus, Web of Science, DOAJ, Google Scholar, CrossRef iqtibos va tahliliy ma‘lumotlar bazalarida, xorijiy nashrlarda konferensiya materiallarini chop etish maqsadida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

O‘zbekiston-Turkiya II ta‘lim forumida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda Turkiyaning 9 ta oliy ta‘lim muassasasi o‘rtasida qo‘shma fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bo‘yicha hamkorlik bitmi imzolandi.

Buxoro muhandislik- texnologiya instituti va Artvin Chorux Universiteti, Istanbul texnika universiteti, Marmara universiteti, Ege univesiteti, Burdur Mehmet Akif Ersoy universiteti, Isparta amaliy bilimlar universiteti, Xajettepe universiteti, Yalova universiteti o‘rtasida hamkorlik imzolandi.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda Xitoyning Yangchou politexnika instituti o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.

18-21 noyabr kunlari Xalqaro va Rossiya ilmiy muhandislar jamiyatlari uyushmasi hamda Texnik universitetlar assotsiatsiyasi tomonidan Rossiya federatsiyasining Moskva shahridagi N.E. Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universitetida V.G. Shuxov tavalludining 170 yilligiga bag‘ishlab tashkil etilgan “Muhandislik fani, muhandislik, muhandislik ta'limi Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari ilmiy-texnik taraqqiyoti xizmatida" mavzusida konferensiya tashkil etildi.

Unda Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Norbek Yuldoshev institut faoliyati va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'ruza bilan qatnashdi.

Yig‘ilish yakunida Xalqaro va Rossiya ilmiy muhandislari jamiyatlari uyushmasi hamda I.M. Gubkina nomidagi neftchi va gazchilar ilmiy-texnik assotsiatsiyasi bilan ilmiy hamkorlik bo‘yicha 5 yillik memorandumlar imzolanishiga erishildi.

Olib borilgan muzokaralar natijasida Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Xalqaro texnik universitetlar assotsiatsiyasiga qabul qilinishi va N.E. Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti bilan magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash bo‘yicha kelishib olindi.

15-16 dekabr 2023 yilda "Neft – gaz kimyosi va texnologiyasida muammolar, innovatsion takliflar va yechim" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnikaviy konferensiyasi tashkil etildi. Xalqaro ilmiy-texnikaviy konferensiyada Buxoro muhandislik-texnologiya

instituti hamda I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti va Novomichurinsk katalizator zavodi (NKZ) o'rtasida hamkorlik memoriandumi imzolandi. Ilmiy anjumanda I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, Polotsk Evfrosin nomidagi Polotsk davlat universiteti, MTO gaz-kimyoy majmuasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, Urganch davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va boshqa ko'plab ishlab chiqarish korxonalaridan kelgan mutaxassislar neft va gaz sohasidagi ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti hamkorlik shartnomasiga asosan talaba almashinuvi va professor - o'qituvchilar malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish, o'zaro hamkorlikda ilmiy metodik konferensiyalar, forumlar, seminarlar o'tkazish hamda professor – o'qituvchilarning malakasini oshirish va stajirovka dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hamda Novomichurinsk katalizator zavodi hamkorlik shartnomasiga asosan talabalarni malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalar asosida seminar va vebinarlar tashkil etish, talabalarni tadqiqot ishi himoyasida mutaxassis sifatida qatnashish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, Xalqaro ilmiy-texnikaviy anjuman davomida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori Siddiqova Sadoqat G'afforovna ilmiy-texnika taraqqiyotiga, muhandislik ta'limi va merosiga qo'shgan katta hissasi uchun, ilmiy va texnik bilimlarni faol targ'ib qilgani uchun Rossiya ilmiy va muhandislik jamoat birlashmalari ittifoqi (RosSNIO) prezidenti, Muhandislik fanlari akademiyasining prezidenti, Proxorova, Rossiya Fanlar akademiyasi Prezidiumi a'zosi, Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi **Gulyayev Yuriy Vasilyevich tomonidan “Vladimir Grigoryevich Shuxovning 170 yilligi”** medali bilan taqdirlandi.

Dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi 306-qaroriga muvofiq Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Neft va gaz sanoatini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, mazkur sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiyani yo'lga qo'yish, kadrlarni o'qitishning usul va shakllarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan to'g'ri tatbiq qilish maqsadida Neft va gaz sohasidagi ta'lim klasteri bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Unga muvofiq Talaba (o'quvchi)larning amaliyot va stajirovka davrida talaba (o'quvchi) hamda pedagog va ilmiy xodimlarga korxonalar tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratib berish, jumladan, shaxsiy himoya vositalari, vaqtinchalik turar joy, uch mahal issiq ovqat va korxonada hududida transport vositasi bilan bepul ta'minlanadi. Shuningdek, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovka davrida ularga ilmiy va amaliy ishlarda korxonadagi asbob-uskunalardan, konstruktiv hujjatlardan foydalanish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi.

Sentyabr oyida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti (BMTI) va MTO Gas Chemical Complex o'rtasida memorandum imzolandi. Hamkorlik to'g'risida memorandum imzolashga bag'ishlangan tadbirda MTO Gas Chemical Complex korxonasi ishlab chiqarish kadrlarini tanlash va o'qitish bo'yicha bosh mutaxassisi Ildar Axmedjanov korxonada zamonaviy talablarga javob beradigan noyob neft-kimyoy mahsulotlarini ishlab chiqarishni alohida ta'kidlab, ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish tadbirkorlikni

rivojlantirish bilan birga, iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish va respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga ham hissa qo‘shishini aytib o‘tdi.

Noyabr oyida "O‘zbekneftgaz" AJ tasarrufidagi "Uzbekistan GTL" zavodi tomonidan "ENG FIDOYI USTOZ II" tanlovi o‘tkazildi. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Neft-gaz texnologiyalari fakulteti professor-o‘qituvchilari Qahramon Sharipov "I darajali sovrin", Ozoda Axmedova "II darajali sovrin", Maksim Tsukanov "III darajali sovrin" bilan taqdirlandi. Shuningdek, "Uzbekistan GTL" zavodi uchun kadrlar tayyorlash dasturi doirasida beshinchi bor o‘tkazilayotgan kompaniyaning stipendiyalar dasturi tanlovi e‘lon qilinib, tanlov natijalariga ko‘ra, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Neft-gaz texnologiyasi fakulteti 4 bosqich talabasi Sarvar Botirov "Uzbekistan GTL" kompaniyasining 2023-2024 o‘quv yili uchun stipendiyasining g‘olibi bo‘ldi.

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-yanvar kungi 03/24-15-01-01-sonli xatida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, tarkibi va o‘tkazilgan yig‘ilishlar tahlili**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil- 3 maydagi PQ-4307-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan video selektor yig‘ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda institutda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning ta‘sirchanligini oshirish, ma‘naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, talabalarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida institut rektorining 2021-yil 9-fevraldagi 112-U sonli buyrug‘i chiqarildi. Mazkur buyruq ilovasi bilan kengash tarkibi 28 nafar a‘zodan iborat kengash tarkibi va rejasi tasdiqlangan. Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi tomonidan 15 dan ortiq masala ko‘rib chiqilgan. Ularning ijrosi bo‘yicha 5 kishidan iborat monitoring guruhi tuzilgan.

Kengash faoliyatining tashabbusi bilan ijtimoiy tarmoqda maxsus Ma‘naviyat va ma‘rifat Kengashining telegram guruhi tashkil etilgan. Institut odob-axloq kodeksi, Sharaf kodeksi, siyosiy-ma‘rifiy tadbirlar bilan bog‘liq masalalar doimiy muhokama qilingan. Barcha yig‘ilishlarda muhokama qilingan masalalar bayonnomalarda aks etilgan.

Hisobot davrida, fakultet va kafedralarda ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishidagi ish rejalarida belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida bajarilgan va rasmiylashtirilgan, yig‘ilishlarida mamlakatimizdagi haftalik ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklar, Prezident va hukumat qarorlari mazmun-mohiyatini yetkazib borish amaliyoti joriy etilgan.

#### *Institutdagi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha rahbar va mas‘ullarning faoliyati tahlili*

Institutda yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish bo‘yicha talabalar orasida ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash maqsadida:

Mas‘ul rektor maslahatchisi, yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i va bo‘lim uslubchilari, talabalarni turar joy bilan ta‘minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i va bosh mutaxasislari, psixolog, tarbiyachi-pedagoglar, xotin-qizlar maslahat kengashi, 8 ta fakultetda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari, xotin-qizlar bo‘yicha dekan maslahatchilari, tyutorlar va yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yetakchisi lavozimlarida tegishli ma‘lumot va bilim darajasiga ega bo‘lgan xodimlar faoliyat olib bormoqda.

2023/2024 o‘quv yilida Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy, huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, odam savdosi, kiber-jinoyatchilikga qarshi, OITS va turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash bo‘yicha mas‘ul tashkilotlar bilan hamkorlik rejalarini ishlab chiqilgan va ijrosi ta‘minlanib kelmoqda.

2023/2024 o'quv yilida chora-tadbirlar rejalarida belgilangan vazifalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar OAV, ijtimoiy tarmoqlarda yoritilib hamda bayonnomalari yuritilgan.

2023-yil 23-noyabr kuni soat 15.00 da institut 2-bino faollar zalida Toshkent Muqimiy drama teatri aktyorlari tomonidan "Qaytar dunyo" spektakli nomoyish etildi. Ushbu spektaklda barcha professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar ishtirok etib madaniy dam olishdi.

BuxMTI da 5 muhim tashabbus doirasida 100 dan ortiq tadbir, talaba-yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish maqsadida 30 dan ortiq tadbir, Huquqbuzarlikka qarshi kurash bo'yicha 20 ga yaqin tadbir (3000 nafar qamrov), Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha 35 tadbir (2000 nafar qamrov), Giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha 30 ta tadbir (1500 nafar qamrov), Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha 50 dan ortiq tadbir (2000 nafar qamrov) tashkil etilgan. Shuningdek, 2022/2023 o'quv yili yanvar oyidan hozirgi davrga qadar 100 dan ortiq sport musobaqalari o'tkazilgan. Unda 4000 dan ortiq ishtirokchilar qatnashgan.

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor D.O.G'afurov – 2023-yildan beri mazkur lavozimda faoliyat yuritib keladi. Ma'lumoti oliy (falsafa fanlari doktori (PhD), o'z lavozimi bo'yicha bilim va ko'nikmalari darajasi yetarli. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vazirligi tomonidan tashkil etilgan malaka oshirish kursini tamomlagan.

2. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Sh.Temirov – 2024-yildan beri mazkur lavozimda faoliyat yuritib keladi. Ma'lumoti oliy, o'z lavozimi bo'yicha bilim va ko'nikmalari darajasi yetarli. 2022-yil may oyida malaka oshirish kursini tamomlagan.

3. Bux MTI ning barcha fakultet dekan o'rinbosarlarining ma'lumoti oliy, o'z lavozimi bo'yicha bilim va ko'nikmalari darajasi yetarli

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar yoki mas'ullarning ish samaradorligiga ko'ra Instituti rektorining 2023-yil 28-dekabrda 492-U sonli buyrug'i bilan moddiy va tashkil etilgan tadbirlar davomida ma'naviy rag'batlantirilib borilgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar yoki mas'ullarning ish rejasi ishlab chiqilib tasdiqlangan va ijrosi doimiy ravishda ta'minlab borilgan. Institutda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot ishlari olib borilib, professor-o'qituvchilar tomonidan yillik olib borilgan ishlar reyting ballari asosida o'rganilgan.

3. Ta'lim muassasasida alohida e'tiborga muhtoj talaba va o'quvchilar bilan olib borilayotgan ishlar holati (nogironligi bo'lgan, yetim, boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan oila farzandlari, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil, tarbiyasi og'ir) talabalar bilan olib borilayotgan ishlar holati

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida 81 nafar imkoniyati cheklangan nogironligi bo'lgan talabalar, 22 nafar chin yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilari bo'lgan talabalar, 256 nafar yetim talabalar, 312 nafar ijtimoiy kam ta'minlangan talabalar, 13 nafar ichki ro'yxatga olingan moyil talabalar tahsil olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 585-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ota-onasi yoki ulardan biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olinishini moddiy jihatdan qo'llab-quvatlash

tartibi to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan institutda tahsil olayotgan jami jami 97 nafar talaba-qizlarning to'lov-kontrakt to'lovlarini to'lab berish bo'yicha ularning yashash hududlaridagi viloyat hokimliklariga xatlar yuborildi.

Institut rektorining 2024 yil 19 yanvardagi 50-U sonli buyrug'i bilan qo'shimcha davlat granti bilan talabalikga tavsiya etilgan "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilariga barcha imkoniyatlar yaratib berish va ularga malakali ustozlar birlashtirildi.

Imkoniyati cheklangan (nogiron) talabalarining xavfsiz harakatlanishi, ta'lim olishi va jamoat joylarida, sport va madaniyat maskanlarida, ovqatlanish vaqtida yordam berish maqsadida institut talabalarini va professor-o'qituvchilari tomonidan ijtimoiy volontyorlik guruhlari tashkil etilgan. Nogironligi bor va harakatlanishi cheklangan fuqarolar madaniy hayotda ishtirok etishlari uchun ko'rgazmalar tashkil etilgan, besh tashabbus tadbirlari doirasida ularning ishtiroklarini ta'minlash, sport-sog'lomlashtirish musobaqalari muntazam o'tkazib kelingan.

Jinoyatchilik va huquqbuzarliklar, o'z joniga qasd, giyohvandlik, OITS, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasida olib borilgan ishlar samaradorligi (sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari tahlili)

Jinoyatchilik va huquqbuzarliklar, o'z joniga qasd, giyohvandlik, OITS, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasida olib borilgan ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha universitetda, talabalar turar joylarida Ichki ishlar xodimlari, diniy qo'mita vakillari, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati xodimlari, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari, sog'liqni saqlash vazirligi tuman tibbiyot bo'limlari vakillari hamda qator tashkilotlar bilan hamkorlikda targ'ibot ishlari amalga oshirilgan (barcha me'yoriy hujjatlar va bayonnomalari yig'ma jildlari mavjud).

Institutda professor-o'qituvchi, ishchi-xodimlar, talabalar va ularning ota-onalari tomonidan rahbariyatga noqonuniy xatti-harakatlar yuzasidan anonim xabar qoldirish imkoniyatini yaratish maqsadida korupsiyaga qarshi kurash\_bot01 faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Talaba va o'quvchilar turar joylarida yoshlarning dam olishi va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishi, shuningdek, ijara va yaqin qarindoshinikida yashovchi kam ta'minlangan talaba-o'quvchilar

Talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan BuxMTI fakultetlari va TTJda ma'naviyat va ma'rifat xonalari hamda o'quv xona, kompyuter xonalari mavjud, turli yo'nalishlarga ixtisoslashgan to'garaklar, 3 ta stol tennisi, shaxmat-shashka turi bo'yicha sport seksiyalari, Ibrat talabalar teatr studiyasi, Xumo raqs, "Gollivud" qvz jamoasi, milliy cholg'u asboblari to'garaklar hamda xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha 2 ta Ingliz tili, Rus tili, nemis tili, fransuz tili bo'yicha bepul kurslar tashkil etilgan.

Institutda tahsil olayotgan yoshlarning teatr va san'atga bo'lgan qiziqishlarini ro'yobga chiqarish maqsadida doimiy ravishda Buxoro shahrida joylashgan muzey, teatr hamda Chinor MALL sinema, Buxoro kinoteatrlari bilan hamkorlikda va talaba-yoshlarning tashriflari tashkil etilgan.

Talabalar turar joylarida yashash uchun ilmiy kengash qarori asosida chin yetim, nogironligi bor, boquvchisini (ota-onasidan birini) yo'qotgan, institut yoshlar ittifoqi faoli,

talabalar turar joyi kengashi a'zolariga talabalar turar joyi to'lovi uchun imtiyozlar yaratib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida" 605-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 28-sentabrdagi 410-sonli buyrug'i ijrosi yuzasidan joriy o'quv yilida har oyda 600 dan ortiq talaba-yoshlarga ijara to'lovlarining bir qismi qoplab berilyapti.

**4.** Ta'lim muassasasida Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, Xotin-qizlar qo'mitasi, Sport klubi, Ustoz-murabbiylar kengashi, tegishli kafedralar, Talabalar kengashi, tarbiyachi-pedagog, psixolog, mavjud klublar va tegishli ishchi guruhlar faoliyatining samarali tashkil etilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqining faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" PF-5106-son Farmoni, 2017-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3138-son qarori, 2023-yilda yoshlarning bandligini ta'minlash, ulaming bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va mafkuraviy tarbiyasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha "Yo'l xaritasi", Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan yagona tadbirlar kalendar rejasi ijrosini ta'minlash, talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ulaming ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan hozirgi kunga qadar ko'plab tanlovlar, loyihalar, intellektual o'yinlar, ma'naviy ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari va mahallar bilan birgalikda turli xil tadbirlar tashkil etilgan. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti hududi, rahbariyati, professor-o'qituvchilari bilan yaqindan tanishtirish maqsasida "Birinchi kurs maktabi", "Talabalar haftaligi"ning ochilish marosimi, Talabalar turar joyida "Student's party", "Koordinator party", "Ittifoq party", "BMTI party", "Gulxan atrofida" madaniy ko'ngil ochar dasturi, ittifoq koordinatorlari va fakultet tyutorlari tomonidan institut talaba yoshlari o'rtasida "Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yishda tyutorlarning o'rni va rolini ta'minlash" maqsadida seminar treninglar, "Zakovat", "Mega Zakovat", "Bilim Ring", "Sevimli kitob", "Zukko kitobxon" loyihasi, Buxoro muhandislik-texnologiya institutida talaba-yoshlarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish, ularga foydali ilmlar hamda start-up loyihalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida Zakovat intellektual klubi viloyat koordinatori bilan hamkorlikda "Zakovat" va "Zakovat kuiz", yakkalik bahslari intellektual o'yinlarini rivojlantirish maqsadida doimiy tur o'yinlari tashkil etib borilmoqda, Respublika bo'ylab "Ipak yo'li durdonasi" XV Toshkent xalqaro kinofestivali doirasida turli madaniy tadbirlar tashkil etiladi. "Euro film fest" loyihasi asosida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Yoshlar ittifoqi kengashi a'zolari hamda faol va tashabbuskor talabalari Buxoro kinoteatriga tashrif buyurib, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar va filmlar namoyishida ishtirok etishgan, "Innoweek.uz-2023" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi, "Uch avlod



uchrashuvi” “Yetakchilar karvoni” loyihasi, “Yashil makon” ummummilliy loyihasi doirasida Buxoro shahri hududida joylashgan 2 ga teng hududni obod qilib “Yosh muhandislar bog‘i”, “Tyutorlar bog‘i”, “Ota-onalar bog‘i”, “Inno WEEK” bog‘larini barpo etishdi, “Munozara” tanlovi kabi bir qancha yoshlarga oid davlat siyosatining dasturiy maqsad va vazifalarini tizimli amalga oshirilib kelindi.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida Xotin-qizlar maslahat kengashi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-sentabrdagi 311-sonli buyrug‘iga binoan jamoatchilik asosida tuzilgan bo‘lib, Xotin-qizlar maslahat kengashi Kengash raisi va 8 nafar fakultet dekan maslahatchilaridan iborat tarkibda tashkil etilgan. Xotin-qizlar maslahat kengashi o‘z faoliyati davomida: talaba-qizlar o‘rtasida ijtimoiy holatni o‘rganish ularning ichki-tartib qoidalariga rioya qilinishini tartibga solish maqsadida muntazam ravishda ertalabki tadbirlarini, talabalarining odob-axloqi, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish hamda institutda tahsil olayotgan talaba-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, yashash manzillari (talabalar turar joylari, ijara, yaqin qarindoshi yoki tanishining uyi va yoki o‘z uyida yashashi, doimiy yoki vaqtincha yashash joylariga borib talabalar holidan xabar olinib, talaba-qizlar bilan odob-axloq qoidalari haqida suhbatlasib muammolari o‘rganilgan. Talaba-qizlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish uchun besh muhim tashabbus yo‘nalishi doirasida “Mohir qo‘llar”, “Eng yaxshi kitobxon” to‘garaklari “Orasta qizlar”, “Qizlarjon” klubi faoliyati olib bormoqda. Klub faoliyatidan talaba-qizlarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish hamda ularning talab va istaklarini inobatga olgan holda, TTJda “Orasta qizlar” viktorinalari doimiy o‘tkazib borilgan. Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi boshchiligida institut faollar zalida va talabalar turar joyida “Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini oldini olish”, “Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini oldini olish”, “Xotin-qizlarning jamiyatdagi va oiladagi o‘rni” mavzularida talaba-qizlar, professor-o‘qituvchilar va IIB xodimlari ishtirokida davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi. Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini oldini olish, ularning tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan bir qator masalalar haqida targ‘ibot ishlari olib borilgan.

“Ilmli ayol - jamiyat ko‘zgusi” shiori ostida “XXI - asr ayoli” Xotin-qizlar festivali doirasida “Hududning 100 nafar ixtirochi ayoli” ko‘rik tanlovida Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktorantlari Samieva Gulnoz Olimovna, Quvonchova Matluba Rashidovna, Sayidova Maftuna Hamroqul qizi, Qurbonova Shaxnoza Murodovna hamda professor Po‘latova Sabohat Usmanovna, talaba Rajabboyeva Gulsanam Abdullo qizi o‘z “Eng yaxshi sanoat namunasi muallifi” nominatsiya g‘olibi va respublika bosqichi yo‘llanmasini qo‘lga kiritgan.

O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasining Buxoro muhandislik-texnologiya instituti sport klubi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 18 may kuni (Guvohnoma №772n-son) tashkil etilgan va Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018 yil 13 iyul kuni “O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasining Buxoro muhandislik-texnologiya instituti sport klubi” nomi bilan (542-son) ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Mazkur sport klubining asosiy maqsadlari: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufidagi ta’lim muassasalari talabalari, professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari va ishchi-xizmatchilarini ommaviy jismoniy va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlariga jalb qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 oktabrdagi “O‘quvchi va talaba yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 864-sonli qarori hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Apparat yig‘ilishining 34-son bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi Ijroiya qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari E.Qodirov va Buxoro muhandislik-texnologiya instituti sport klubi tomonidan 2023 yilning oktabr, noyabr, dekabr oylari uchun 50.000000 (ellik million so‘m) shartnoma (18.09.2023. №62). imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 7-fevraldagi 02-PA 1/1-254-son topshiriq xatiga asosan oliy ta‘lim muassasalari talaba-yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan yagona tadbirlar kalendar rejasi tasdiqlangan rejaga asosan tadbirlar o‘tkazilgan. Mazkur chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, talabalar o‘rtasida sportning Shaxmat-shashka, voleybol, futbol, basketbol, stol-tennisi, kurash, gandbol sport turlaridan institut chempionati, sportning voleybol, stol-tennisi, shaxmat-shashka, badminton, gandbol va kurash turlaridan “Vazir kubogi” musobaqalarini o‘tkazilgan. BuxMTI sport klubi 2023-yil faoliyati davrida institut talabalari 1-nafari Jahon chempioni 3-nafar Osiyo chempioni 3 o‘rin sohiblari va 10 yaqin O‘zbekiston chempionligini qo‘lga kiritishdi. Undan tashqari “Universiada”, “Talabalar ligasi”, “Besh tashabbus olimpiadasi” kabi Respublika oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan sport musobaqalarida faol ishtirok etib faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi. 2023-yilda BuxMTI sport klubi tomonidan 100 dan ortiq musobaqalar o‘tkazildi. Sport klubida talabalarning darsdan keyingi bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sportga qiziqishini yanada orttirish maqsadida yigitlar va xotin-qizlar uchun to‘garaklar tashkil qilingan. Institut yotoqxonasida yashovchi talabalar uchun har kunlik sport mashg‘ulotlari va kechki paytda soat 19:00 dan 21:00 gacha Institut sport zalida malakali murabbiylar bilan birgalikda sport o‘yinlari o‘tkazilib borilgan.

Institutda mavjud 35 ta kafedraning ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishda olib boriladigan ishlar rejasi ishlab chiqilib tasdiqlangan, har bir kafedrada mas‘ul professor-o‘qituvchilar biriktirilib talabalar yoshlar bilan ishlash sohasida, targ‘ibot tadbirlarida, turli festival va bayram sanalarida faol ishtiroki ta‘minlangan. Talabalar turar joyi tarbiyachi-pedagogi tomonidan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining na‘munaviy ish rejasi asosida rejalar ishlab chiqilib, doimiy ishlar tashkil etib borilgan.

**5.**Ta'lim muassasasidagi professor-o'qituvchilar va xodimlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlardan xabardorligi va ularning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilimlarini oshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar.

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-sentabrdagi № 3/15- 52-1318-son topshiriq xati asosida 2023/2024 o‘quv yili davomida “Axborot va tyutorlik soati” mashg‘ulotlari bo‘yicha taqdimot mavzulari Ta'lim muassasasi tomonidan “Axborot va murabbiylik soati”ni o‘tkazish bo‘yicha reja-jadval mavjudligi va uning ijrosi “Axborot va murabbiylik soati” rejasida belgilangan mavzulaming dolzarbligi va ulami tashkil etishda zamonaviy targ‘ibot vositalari (taqdimot, rolik, infografika, buklet, flaer, animatsiya va boshqalar)dan foydalanilgan, Ommaviy axborot vositalarida tegishli sohadagi islohotlar targ‘ibotiga bag‘ishlab tahliliy materiallar e‘lon qilingan.

Bux MTI da 2023-2024 o'quv yilida jami barcha guruhlarda "Axborot va murabbiylik soati" tasdiqlangan dars jadvali asosida o'tilgan.

Institutda "Axborot va murabbiylik soati"ni o'tkazishni ijrosi esa har haftada "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi tomonidan yuboriladigan Axborot va murabbiylik soati mashg'uloti materiallari Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor tomonidan nazoratga olinib, ijro uchun fakultetlarning dekan o'rinbosarlariga axborot soatlarida foydalanish uchun taqdim qilinadi. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi tomonidan Axborot va murabbiylik soatlarini o'tilishi bo'yicha doimiy ravshda fakultetlar kesimida tekshirilib boriladi. Har bir guruh tyutorlarida Axborot-murabbiylik soatlarini tashkil etganliklari to'g'risida bayonnomalar mavjud.

2023-yil sentabr oyidan 2024-yil oktabr oyigacha institutda proferssor – o'qituvchilar tomonidan OAV da tegishli sohdaagi islohotlar targ'ibotiga bag'ishlab e'lon qilingan tahliliy materiallar, intervyular soni jami 200 dan ortiqni tashkil etadi. Jumladan: O'zbekiston 24 kanal – 20 ta, Xalq so'zi – 5 ta, Yangi O'zbekiston – 3 ta, MY5 kanali– 5 ta, Yoshlar kanali – 2 ta, Sevimli telekanali – 3 ta, Buxoro MTRK – 30 ta, Ma'rifat gazetasi – 3 ta, Intellect gazetasi – 80 ta, Buxoronoma gazetasi – 30 ta, Buxoro oqshomi gazetasi – 20 ta, Istiqlol telekanali – 5 ta

## 6. Ta'lim muassasidagi "Ma'naviyat va ma'rifat xonasi"ning tashkil etilganligi, tashqi targ'ibot vositalarining mavjudligi va mazmuni

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi hampda Republika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 23 iyundagi Qo'shma qarorlari belgilangan namuna asosida institutda bosh binosida bitta "Ma'naviyat va ma'rifat xonasi" tashkil etilgan. "Ma'naviyat va ma'rifat xonasi" belgilangan talabga javob beradi. Xonada Davlat bayrog'i va Davlat gerbi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining portreti, O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari bir xil o'lchamdagi ramkalarda o'rnatilgan. Nizom asosida barcha talablarga javob beradi.

Ma'naviyat va ma'rifat xonasi 1 ta ish stoli, 1 ta kompyuter stol-stuli, 4 ta 8 kishilik yarim aylana shaklidagi davra stoli, 32 ta yarim yumshoq stul, 4 ta kitob javoni, 1 ta minbar (tribuna) va matbuot burchagi bilan jihozlangan.

Xona ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid plakatlar, ijtimoiy-siyosiy savodxonlikni oshirishga doir adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot materiallari va adabiyotlari, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishga oid gazeta va jurnallar bilan ta'minlangan.

Institut binosida 100 ga yaqin yurtimiz allomalarining suratlari va hikmatli so'zlari tushurilgan stndlar hamda "5 tashabbus", devoriy targ'ibot vositalari o'rnatilgan.

## 7. Ta'lim muassasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish borasida shakllangan o'ziga xos xususiyatlar

Institutda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbir va tanlovlarni samarali tashkil etish, yoshlarni keng jalb etish va shu orqali ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida "Yoshlar haftaligi", "Ma'rifat maydoni", "Teatr haftaligi", "Kino oyligi", "Milliy qadriyatlar kuni", "Ota-onalar kongressi" kabi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Haftalik doirasida konsert dasturlari, "Quvnoqlar va zukkolar" festivali, ilmiy-amaliy konferensiya, Zakovat, Zukko kitobxon, debat, videoroliklar tanlovi, talabalar

orasida psixologik treninglar, sport musobaqalari o'tkazilgan. Talaba-yoshlar bilan o'z sohasining yetuk va professional mutaxassislari ishtirokida muvaffaqiyatga erishish sirlariga bag'ishlangan trening, seminar va uchrashuvlar doimiy o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-avgustdagi 351-sonli buyrug'iga ilova Oliy ta'lim muassasalarida 2023-2024-o'quv yili davomida o'tkaziladigan tadbirlarning kalendar rejasi asosida institutda 87 bandan iborat kalendar reja ishlab chiqilgan hamda 300 mln so'mga yaqin smeta ajratilib tabdirlar tashkil etib kelinmoqda.

Institut 2-son O'quv binosida har haftaning chorshanba kuni ananaviy "Zakovat" turniri, oyda bir marta payshanba kuni "Zakovat Quiz" o'yinlari o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Ushbu turnir talabalar o'rtasida, shuningdek, institutga biriktirilgan mahallalarda istiqomat qilayotgan uyushmagan yoshlar orasida doimiy ravishda ommalashtirilib kelinmoqda.

Har hafta respublikada tashkil etilgan Talabalar ligasi "Zakovat" o'yinlarida sinxron ravishda viloyat Yoshlar markazida institutning 2 ta jamoasi "Metsenat" va "Ibrat" jamoalari doimiy ishtirok etib kelmoqda.

Ichki va ziyorat turizmini samarali yo'lga qo'yish maqsadida yurtimizning Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlaridagi tarixiy obidalar, Buxoro viloyatining diqqatga sazovor qadamjolari hamda tarixiy obidalariga 4 000 dan ortiq talabalarning sayohatlari tashkil etildi. Shuningdek, kino, teatr va muzeylarga 4 000 dan ortiq talabalarning tashriflari tashkil etilib, institutning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 100 000 000 so'mdan ortiq pul mablag'lari ajratilgan.

## 8. Ta'lim muassasasidagi davlat tilida ish yuritish holati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2021-yil 20-oktabrdagi PF-6048-sonli Farmoni hamda O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 18-maydagi 87-01-377-sonli xatiga asosan institutda ish yuritish hamda mavjud hujjatlarni lotin yozuviga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha institutning tegishli hujjatalari ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ish yuritish hujjatlarining davlat tilida va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yuritilishi holati yaxshi bosqichma bosqich amalga oshirilgan.

2023-yilda institutning 30 nafar rahbarlari viloyatdagi malaka oshirish markazida malaka oshirdi.

9. Ta'lim muassasasidagi mavjud veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar, ularda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda yoritilgan materiallar, a'zolar qamrovi

Buxoro muhandislik-texnologiya institutining <https://bmti.uz> veb-sayti va [https://t.me/BuxMTI\\_rasmiy](https://t.me/BuxMTI_rasmiy), <https://instagram.com/buxmti>, <https://www.facebook.com> kabi ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar tashkil etilgan bo'lib, ularda yoshlar sohasi va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi amalga oshirilgan ishlar doimiy yoritib borilgan hamda materiallar joylashtirilgan. Institutda 5 muhim tashabbus doirasida madaniyat va san'at, sport, kompyuter texnologiyalari, kitobxonlikka jalb etish maqsadida 89 ta ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, sport yo'nalishida to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilib, talabalar darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida to'garaklarga keng jalb etildi. Talabalar-yoshlar uchun

musiq, teatr va san'at yo'nalishida 258 ta tadbir, jismoniy chiniqtirish va sport sohasida 234 ta musobaqa va tadbirlar, yoshlar o'rtasida kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha 197 ta tadbir, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha 331 ta tadbir, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash va ularni oilaviy hayotga tayyorlash yo'nalishida 201 ta tadbir, tanlov va davra suhbatlari tashkil etilgan. Institutda amalga oshirilayotgan yangilanishlar va o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar OAV larida, ijtimoiy faol tarmoqlarda yoritib borilgan. Jumladan, Buxoro teleradiokanalida, O'zbekiston 24 telekanalida, Ma'rifat, Yangi O'zbekiston gazetasi, Hurriyat gazetasi, Buxoronoma gazetasi, UzA axborot agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va hududiy ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilgan.

**10.** Ta'lim muassasasida va talabalar turar joyida ijarada yashovchi talabalar o'rtasida turli salbiy illatlar, ma'muriy huquqbuzarlik, jinoyatchilik va korrupsion holatlarini oldini olish bo'yicha choralar ko'rilganligi

Buxoro muhandislik-texnologiya institutda 14798 nafar talaba tahsil olmoqda. 860 o'ringa mo'ljallangan 2 ta talabalar turar joylari mavjud bo'lib, ayni paytda 560 nafar talaba istiqomat qilmoqda. (*institut huzuridagi akademik litsey uchun 300 o'rin ajratilgan*)

2023-2024 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 376-son qarori asosida 1-kurs talabalarining talabalar turar joyi uchun davlat xizmatlari agentligi yoki my.gov.uz sayti orqali bepul onlayn ariza berish imkoniyati yaratildi va buning natijasida bugungi kun holatida 517 ta ariza (1-ustuvorlik bo'yicha 126 ta ariza, 2-ustuvorlik bo'yicha 324 ta ariza, 3-ustuvorlik bo'yicha 67 ta ariza)kelib tushdi. Imtiyozga ega bo'lgan 1-ustuvorlik bo'yicha kelib tushgan 126 arizaning barchasi qanoatlantirildi.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti 1-son Talabalar turar joyi umumiy quvvati 600 nafar talabaga mo'ljallangan bo'lib, shundan 327 ta o'rin institut yigit va qiz bola talabalar uchun ajratilgan. 2-son Talabalar turar joyi umumiy quvvati 260 nafar talabaga mo'ljallangan bo'lib, bu yerda qiz bolalar yashab kelmoqda.

Institutning 750 o'rinli 3-son Talabalar turar joyi 2024 yil 1 fevraldan ochilishga tayyor holga keltirildi.

Institutda 5415 nafar tahsil olayotgan talabalarining 2086 nafar talabalari ijara xonadonlarida, 2502 nafari o'z uyida, 740 nafari talabalar turar joylarida hamda 87 nafari yaqin qarindoshini uyida istiqomat qiladi.

Buxoro viloyat ichki ishlar boshqarmasining ma'lumotiga asosan institutda 202 yilda 10 ta jinoyatchilik va huquqbuzarlik sodir etilgan bo'lib, 2023 yilda olib borilgan profilaktik tadbirlar samarasida 3 ta jinoyatchilik holatlari talabalar tomonidan sodir etildi.

Institut talabalariga huquqbuzarlik, jinoyatchilik va korrupsion holatlarni oldini olish yuzasidan 2023-2024-o'quv yilida 15 marta, talabalar o'rtasida uchrashuv tadbirlari o'tkazilgan. Tadbir bayonomalari rasmiylashtirilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurash va talabalar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish uchun "Mobil guruh", "Qalqon" jamoatchilik guruhlari tashkil etilgan va barcha sharoitlar institut rahbariyati tomonidan ta'minlangan.

Institut Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, fakultetlar ish rejalari asosida professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar orasida 2023-2024-o'quv yili davomida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha 10 ta,

giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha 5 ta, OITSGa qarshi kurashish bo'yicha 5 ta, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish borasida 6 ta profilaktik uchrashuvlar amalga oshirilgan. Jumladan: Buxoro viloyat Adliya boshqarmasi, Musulmonlar diniy idorasi Buxoro viloyat vakilligi mutasaddi xodimlari bilan, Buxoro viloyat IIB, viloyat norkologiya dispanseri, viloyat OITSGa qarshi kurashish markazlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar o'tkazilgan. Oxirgi uch yil mobaynida fakultetlarda professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik holati Ichki ishlar boshqarmasi tomonidan qayd etilmagan. Buxoro viloyati hokimligi huzuridagi narkotik moddalarni nazorat qilish bo'yicha Mintaqaviy komissiyasining O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, "Narkotik moddalarining sueste'moli va noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha 2021-yilga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar Dasturi", hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 28-sentyabrdagi 2/18-2/3-11-sonli xatiga asosan institutda 6 banddan iborat chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan. Mazkur chora-tadbir rejasiga asosan institutda 3 marta tadbirlar o'tkazilib bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Institutda Sog'lom muhitni shakllantirish hamda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha 11 banddan iborat Yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Mazkur Yo'l xaritasiga asosan, institut rahbariyati tomonidan 7 nafardan iborat ishchi guruh shakllantirilgan. Korrupsiyani oldini olish bo'yicha ishchi guruh tomonidan institut talabalaridan belgilangan reja asosida so'rovnomalar o'tkazilib ke linmoqda.

#### **11. O'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot tadbirlari**

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida talaba yoshlar bilan ishlashda nazarda tutilgan hujjatlar jildi, ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid hukumat qarorlari, Prezident farmonlari va farmoyishlarining mavjud, ularning ijrosi bo'yicha doimiy tizimli ishlar amalga oshirib borilgan va tegishli nomenklatura hujjatlari shakllantirilgan.

Institutda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot-tashviqot tadbirlari doimiy berilgan reja asosida tashkil etilgan. Institutda 5 ta muhim tashabbusning har bir yo'nalishi bo'yicha talabalar turar joyida alohida moslashtirilgan xonalar tashkil etilgan. Xususan 2023 yilda institutning 2-o'quv binosida alohida Intelektual maydon tashkil etildi, 1-son talabalar turar joyida "Xotin-qizlarni kasbga o'qitish" markazi tashkil etilib, zamonaviy rusmdagi 8 dona tikuv mashinalari olib berildi. Shuningdek institutda 5 muhim tashabbus doirasida madaniyat va san'at, sport, kompyuter texnologiyalari, kitobxonlikka jalb etish maqsadida jami 89 ta to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilib, talabalar darsdan tashqari bo'sh vaqtlarida to'garaklarga keng jalb etilgan. Talabalar-yoshlar uchun musiqa, teatr va san'at yo'nalishida 200 ta tadbir, jismoniy chiniqtirish va sport sohasida 100 ga yaqin musobaqa va tadbirlar, yoshlar o'rtasida kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha 120 ta tadbir, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha 200 ta tadbir, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash va ularni oilaviy hayotga tayyorlash yo'nalishida 201 ta tadbir, tanlov va davra suhbatlari tashkil etilgan. Institutda 9 ta "Talabalar teatr studiyalari", 9 ta "Quvnoqlar va zukkolar" jamoalari hamda 80 dan ortiq "Zakovat" klublari, 1 ta "Xumo" raqs to'garagi va milliy cholg'u ansambli, "Hojiboy qizlari" hajviy guruhi jamoalari faoliyati yo'lga qo'yilib, talabalarning konsert dasturlari tashkil etilgan. Ichki va ziyorat turizmini samarali yo'lga qo'yish maqsadida yurtimizning Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlaridagi tarixiy obidalar, Buxoro viloyatining diqqatga sazovor qadamjolari hamda tarixiy obidalariga 4 000 dan ortiq

talabalarning sayohatlari tashkil etildi. Shuningdek, kino, teatr va muzeylarga 4 000 dan ortiq talabalarning tashriflari tashkil etilgan. Institutda sport-sog'lomlashtirish ishlari yanada samarali tashkil etish bo'yicha sport klubi, jismoniy madaniyat fakulteti bilan hamkorlikda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Talabalarni darsdan so'ng sport seksiyalariga jalb qilish maqsadida sport turlari bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi. Sportning shaxmat-shashka, stol tennis, voleybol, minifutbol, kurash kabi turlaridan "Vazir kubogi", "Rektor kubogi" musobaqalari, birinchi marotaba fakultet jamoalari o'rtasida "Talabalar ligasi" sport musobaqalari, "Dekan kubogi", "Tyutor kubogi" tashkil etildi. Shuningdek, "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalari institut bosqichi yuqori saviyada tashkil etilib, Respublika Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkazilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalarida institut talabalari munosib ishtirok etishdi. Institutda faoliyat yuritayotgan xodimlar va professor-o'qituvchilar o'rtasida rektor kubogi musobaqalari tashkil etilgan. Kitobxonlikni ommalashtirish bo'yicha shoir va yozuvchilar bilan ijodiy uchrashuvlar, kitobxonlik tadbirlari, mushoira kechalari, adiblar hayotini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Ma'rifat maydoni" tanlovlari tashkil etildi. Talabalardan tarkib topgan 80 dan ortiq "Zakovat" jamoalarning fakultet bosqichi o'yinlari o'tkazildi. Tashkil etilgan intellektual loyihalarda 2 000 dan ortiq talaba-yoshlar qamrab olindi.

2023-yilda institutda tahsil olayotgan talabalardan tashkil topgan fakultetlarning "Talabalar teatr studiyalari" o'rtasida 2 marotaba teatr tanlovlari tashkil etildi. Institutning "Ibrat" teatr studiyasi viloyatdagi bir qancha maktab va tashkilotlarda o'z chiqishlarini namoyish etishdi.

Xotin-qizlarni jamiyatdagi nufuzini oshirish, talaba-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida institutda 30 dan ortiq davra suhbatlari, 10 dan ortiq tanlov va bellashuvlar tashkil etildi. Xotin-qizlar maslahat kengashi huzurida faol talaba-qizlardan tashkil topgan "Qizlarjon" klubi tashkil etildi. Xotin-qizlar tomonidan "Buvijonim kiygan liboslar", "Milliy qadriyatlarining eng faol targ'ibotchisi", "Orasta qizlar" "Mis fakultet", "Institut malikasi" kabi tanlovlar tashkil etildi.

Institutda tahsil olayotgan fan, ta'lim, madaniyat, sport yo'nalishlarida yuqori natijalarga erishgan iqtidorli va faol bo'lgan talabalarning 300 ga yaqini "Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan 355.753.000 mln so'm miqdoridagi pul mablag'lari bilan rag'batlantirildi. *(Shundan, Yoshlar ittifoqining kordinatorlarini rag'batlantirish uchun 130.410.000 mln so'm, "Qalqon" jamotchilik guruhi faol a'zolarini rag'batlantirish uchun 18.385.000 mln so'm, "Zakovat" o'qini g'oliblari uchun 51.780.000 mln so'm, "Zakovat Quiz" o'yini uchun 51.780.000 mln so'm, Sport musobaqalarida g'olib bo'lgan talabalarni rag'batlantirish uchun, Institutda tashkil etilgan turli tadbir va tanlovlarda faol ishtirok etib g'olib va sovrindor bo'lgan talabalarni rag'batlantirish uchun, Jamoat ishlarida faol bo'lgan talabalarni rag'batlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogiron talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun 150.000.000 mln so'm pul mablag'lari to'lab berildi.)*

2024-yilda institut talabalari o'rtasida tashkil etiladigan tanlov va bellashuvlarni ayniqsa, kitobxonlik va mushoira kechalarini, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ikki barovar ko'paytirish va talabalarning qamrovini oshirish; Quvnoqlar va zukkolar, "Talabalar teatr" studiyalari tanlovlari, yoshlar festivallari, osh chempionatlari, vatanparvarlik hamda sport yo'nalishidagi turli tanlov va musobaqalarni tashkil etish, talaba-qizlarni yanada faolligini oshirish bo'yicha loyiha va tadbirlarni ommalashtirish choralari ko'riladi.

Sport sohasida jahon chempionlar, Osiyo chempionlari, Respublika chempionlarini sonini, ko'paytirish; "Yil talabasi", Davlat stipendiyalari, Teatr, QVZ, Zakovat, Kitobxonlik tanlovlarida yuqori natijalarga erishish; Talabalarning ichki turizmga keng jalb qilish, Kino, teatr, muzey va san'at ko'rgazmalariga tashriflarini oshirish; Maqomchilar ansambli va raqs jamoalarini faoliyatini yo'lga qo'yish; Ijodkor yoshlarning to'plamlarini institutning mablag'lari hisobidan nashr etish; Talaba-qizlarning "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotini qo'lga kiritishiga erishish; eng asosiysi Talabalar orasida jinoyatchilik holatlari sodir etilishiga to'liq barham berish maqsad qilingan.

**12.** Reyting yilida halqaro va respublika tanlovlari, sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'i

**Universiada 2023** – 2 ta oltin, 1 ta bronza, (yengil atletika)

**O'zbekiston chempionati badminton** - 1 ta oltin, 2 ta bronza

**O'zbekiston kubogi** – 1 ta oltin (yengil atletika)

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman** – 2 ta 1 o'rin

**Osiyo kubogi** – 1 ta bronza,

**Osiyo chempionati** – 1 ta bronza,

**Jahon chempionati** – 1 ta bronza,

**Xalqaro hamdo'stlik musobaqasi** – 1 ta bronza (Dizayn yo'nalishida)



**IV. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 15-yanvar kungi 03/24-15-01-01-sonli xatida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan Buxoro muhandislik-texnologiya institutida moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha 2023-yil (sentyabr-dekabr) davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot**

1. Tadbirkorlik asosida byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'lar ishlab topish (to'lov-kontrakt mablag'lari bundan mustasno):

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida **2022 yilda** ta’lim xizmati va servis sohasi bo‘yicha jami **3 mlrd 399 mln 655** ming so‘m byudjetdan tashqari mablag‘lar kelib tushgan.

*1-jadval* **2022 yilda byudjetdan tashqari tushumlar**

No	Daromad turlari	Ta’lim xizmati va servis sohasi bo‘yicha daromad (ming.so‘m)
A	1	2
	Jami daromad	3 399 655,3
	<i>Shu jumladan</i>	
1	Pullik kurslar	32 709,2
2	Tadbirkorlik va Servis sohasi o‘yicha	3 366 946,1

**2023 yil** moliya yilida institutning to‘lov kontrakt tushumlaridan tashqari byudjetdan tashqari mablag‘lari **4 mlrd 77 mln 49 ming** so‘mni, tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **677 mln 394 ming** so‘m (**20 %** oshgan) ko‘p mablag‘ ishlab topilgan.

*2-jadval* **2023 yilda byudjetdan tashqari tushumlar**

No	Daromad turlari	Ta’lim xizmati va servis sohasi bo‘yicha daromad (ming.so‘m)
A	1	2
	Jami daromad	4 077 049,8
	<i>Shu jumladan</i>	
1	Pullik kurslar	53 300,6
2	Tadbirkorlik va Servis sohasi o‘yicha	4 023 749,2
	<b>2022 yilning mos davriga nisbatan</b> <b>Farqi (summa)</b> <b>(foiz)</b>	<b>677 394,5</b> <b>20 %</b>

2. Davlat xususiy-sheriklik asosida amalga oshirilgan ishlarning mavjudligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 sentabrdagi “Respublika Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 563-son va 2022 yil 6 maydagi “Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida qurish uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 239-son qarorlari, institutning 2022 yil 9 martdagi 05/85-31-sonli xatiga javoban Buxoro shahar hokimining 2022 yil 5 apreldagi 168-2-42-Q/22-sonli qarori bilan institut buyurtmachiligida akademik litsey o‘quvchilar turar-joyi binosini rekonstruksiya qilishga ruxsat olingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga akademik litsey turar-joyi binosini institut balansiga o‘tkazish bo‘yicha 2022 yil 11 apreldagi 89-01-178-sonli xati chiqarildi. Buxoro viloyat qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasidan talabalar turar joyi binosining texnik holati bo‘yicha va Buxoro shahar Davlat xizmatlari markazidan APZ xulosalari olingan.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining 08.09.2022 yildagi 16134-sonli bayoniga (22411006016134-sonli lot bo‘yicha) asosan “Buxoro shahar Navoiy shoh ko‘chasi hududida joylashgan Buxoro muxandislik-texnologiya instituti 750 o‘rinli talabalar turar joyi binosini rekonstruksiya qilish” ob‘ekti bo‘yicha 10 722 668 422 so‘mlik 1-son pudrat shartnomasini tuzildi.

2023 yilning noyabr oyida Mazkur shartnoma bo‘yicha ishlar loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq amalga oshirilib, tegishli dalolatnomalar tuzildi.

Bundan tashqari 2023 yilning dekabr oyida 750 o‘ringa mo‘ljallangan 3 678 348 701 so‘mlik mebel jihozlari bilan ta‘minlandi.

**3. Kommunal xizmatlardan o‘tgan yilga (12 oylik) nisbatan iqtisod qilinganligi to‘g‘risidagi (ko‘rsatkichlar naturada keltirilgan holda foizlardagi) tahlillari**

Institutda **2022** yilning 12 oyi davomida:

- elektr energiyasi – 782,82 ming kVt/soat;
- tabiiy gaz – 321,49 ming m/kub;
- sovuq suv va ogova – 45,998 ming m/kub sarflangan.

**2023** yilning 12 oyi davomida:

- elektr energiyasi – 688,4 ming kV t/soat, (bundan quyosh panellaridan ishlab chiqarilgan elektr energiya quvvati 115,9 ming kVt/soat, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJdan olinadigan elektr energiya quvvati 572,4 ming kVt/soatni tashkil etadi);

- tabiiy gaz – 249,3 ming m/kub;
- sovuq suv va oqova – 49,8 ming m/kub sarflangan.

Elektr energiya bo‘yicha iqtisod 36,7%, tabiiy gaz bo‘yicha iqtisod 28,9 %ni tashkil etgan.

Kommunal xizmatlar xaridlari uchun **2023** yil davomida

- elektr energiya uchun jami 614,1 mln so‘m mablag‘ sarflangan;
- tabiiy gaz uchun jami 280,8 mln so‘m sarflangan;
- sovuq suv va oqava suvlar xarajatlari uchun jami 157,3 mln so‘m mablag‘ sarflangan.

**4. Oliy ta'lim muassasasida mehnatni muhofaza qilish xizmati va**

faoliyati tashkil etilganligi

4.1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 7-yanvarda 870-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ta'lim muassasasining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha Yo'riqnoma ishlab chiqilganligi

Institutda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 7 yanvarda 870-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq institutning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha Yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14-avgustda 273-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida"gi Namunaviy Nizom talablari asosida ta'lim muassasasi tizimida ishlarni tashkil qilish Nizomining mavjudligi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 14-avgustda 273-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida"gi Namunaviy Nizom talablari asosida ta'lim muassasasi tizimida ishlarni tashkil qilish Nizomi mavjud.

**5. Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati (tayyorgarlik ishlarini tasdiqlovchi tegishli dalolatnomalar mavjudligi)**

Institutda kuz-qish mavsumi tayyorgarligi bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 385-sonli buyrug'iga asosan 2023/2024-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha institut rektorining 2023-yil 7-sentabrda 289-U-sonli ichki buyrug'i imzolangan, institutning o'quv binolari, talabalar turar joylari, boshqa yordamchi binolari hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini 2023/2024-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha Ishchi guruh tuzilgan, mutasaddi mutaxassislarni jalb qilgan holda barcha bino va inshootlar hamda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yana bir bor ko'rikdan o'tkazish va natijasi asosida tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Institut qozonxonalarini 2023/2024-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Institutda binolar uchun alohida jami **8 ta** lokal qozonxonalar mavjud. (**Reja 2 ta Amalda 4 ta** yangi qurildi. **Shundan 3 ta** qozonxona ko'mirga **1 dona** tabiiy gazga mo'ljallangan. Qozonlarning umumiy soni **18 tani** tashkil etadi).

- 1 va 2-o'quv-laboratoriya va sportzal binolari uchun quvvati KVa-2,0 Gn/LJ bo'lgan tabiiy gazga mo'ljallangan (**2 dona** qozon) qozonxona tizimi orqali issiqlik energiyasi yetkazib beriladi;

- 3-o'quv-laboratoriya binosi uchun quvvati KVa-0,6 Gn/LJ bo'lgan tabiiy gazga mo'ljallangan (**2 dona** qozon) qozonxona tizimi orqali issiqlik energiyasi yetkazib beriladi;

- 4-o'quv va 2-talabalar turar joyi binolari uchun quvvati KVa-300 Gn/LJ bo'lgan tabiiy gazga mo'ljallangan (**2 dona** qozon) hamda MTB-400T/G+GVS ko'mirga va tabiiy

gazga mo'ljallangan (**2 dona** qozon) qozonxonalar tizimlari orqali issiqlik energiyasi yetkazib beriladi;

- 1-talabalar turar joyi binosi uchun quvvati KOGn-400 bo'lgan tabiiy gazga mo'ljallangan (**4 dona** qozon) hamda MTB-600T/G+GVS **ko'mirga** va **tabiiy** gazga mo'ljallangan qozonxonalar tizimlari orqali issiqlik energiyasi yetkazib beriladi;

- 3-talabalar turar joyi binosi uchun quvvati MTB-600T+GVS **ko'mirga** mo'ljallangan (**2 dona** qozon) va quvvati MTB-600Gn/Lj+GVS tabiiy gazga mo'ljallangan **2 dona yangi qozonxona** o'rnatilgan.

Barcha qozonxonalar uchun mavsumiy ishlashlari uchun (2023 yil 15 noyabrdan 2024 yil 15 martgacha qadar) **8 nafar** o't-yoquvchilar qabul qilingan, ular uchun navbatchilik jadvali rasmiylashtirilgan.

Barcha binolarning mavjud isitish qozonlari bosim ostida yuvilib, sinovdan o'tkazish ishlari olib borilgan. Binolarning ichki issiqlik tizimi quvurlari to'liq ta'mirlangan, tashqi issiqlik tizimi quvurlari issiqlikni tejash maqsadida izolyatsiya qoplamasi bilan qoplangan, issiqlik tizimlaridagi tugunlar (zadvijka va vintellari) reviziya qilinib, profilaktika ishlari olib borilgan.

**2023/2024** yillar kuz-qish mavsumi uchun budjetdan tashqari mablag'lar **25 mln 500 ming** so'm mablag' evaziga **15 tonna** saralangan **ko'mir** mahsuloti sotib olingan.

Elektr energiya, sovuq suv va tabiiy gaz o'lchov asboblari qayta ko'rikdan o'tkazilib, soz holga keltirib qo'yilgan.

Institut balansida bo'lgan elektr uskunalari kuz-qish mavsumiga tayyorlash bo'yicha hududda joylashgan transformator, elektr uskunalari, uzatish tarmoqlari, izolyatorlar va boshqa elektr tarmoqlari inventarizatsiyadan o'tkazilib, tegishli tashkilotlar tomonidan dalolatnomalar rasmiylashtirilgan. Institut binolarining tom qimida umumiy quvvati **400 kVt** bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyalari (2023 yil sentabr oyi oxirida to'liq o'rnatilganligi), ko'cha yoritish jihozlari va 1, 2-o'quv-laboratoriya binolari koridorlaridagi yoritish jihozlariga sensororli datchiklar o'rnatilishi hisobidan umumiy quvvatining **15 %** miqdorida elektr energiyani tejash imkoniyati yaratildi. "HET" AJ tarmoqlariga ulash, belgilangan tartibda shartnoma tuzish va o'rnatilgan quyosh panellari Bojxona qo'mitasining "Yashil energiya" platformasiga kiritish ishlari amalga oshirilgan.

Institut o'quv-laboratoriya, talabalar turar joylari, sport zali va yordamchi xo'jalik binolarida mavjud barcha ichki va tashqi elektr tizimlarining ishlashi zaruriy talablarga javob beradi.

Institut hududida obodonlashtirish ishlari, yashil makon dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar, manzarali va mevali daraxtlarni ekish va qayta parvarishlash:

Institut hududidagi yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida hududlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish uchun loyiha-xaritasi ishlab chiqilgan bo'lib, fakultetlarga taqsimlangan va mas'ul shaxslarga biriktirilgan. Institutning umumiy hududi **23,58 gektar** bo'lib, shundan obodonlashtiriladigan yer maydonlari **9,8 gektarni** tashkil etadi. Institutning ichki va tashqi hududida irrigatsiya va sug'orish tizimlarini texnik ko'rikdan o'tkazish natijasida **750 metr lotok va ariqlar** tozalanib, **260 metr** sug'orish uchun mo'ljallangan lotok va ariqlarni ta'mirlash ishlari bajarilgan. Hududda barcha daraxtlarning qurigan shoxlarini tartibga solish, shakl berish va oqlash ishlari amalga oshirilgan, yo'laklarni ta'mirlash, bardyuralar o'rnatish va oqlash, gulzor va daraxtzorlarning yer qismini chopish va yumshatish hamda qish mavsumiga tayyorlash ishlari reja asosida olib borilgan.

Institut hududida obodonlashtirish ishlari, yashil makon dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar, manzarali va mevali daraxtlarni ekish va qayta parvarishlash: institut hududidagi yer maydonlaridan samarali foydalanish maqsadida hududlarni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish uchun loyiha-xaritasi ishlab chiqilgan bo'lib, fakultetlarga taqsimlangan va mas'ul shaxslarga birlashtirilgan. Institutning umumiy hududi **23,58 gektar** bo'lib, shundan obodonlashtiriladigan yer maydonlari **9,8 gektarni** tashkil etadi. Institutning ichki va tashqi hududida irrigatsiya va sug'orish tizimlarini texnik ko'rikdan o'tkazish natijasida **750 metr lotok va ariqlar** tozalanib, **260 metr** sug'orish uchun mo'ljallangan lotok va ariqlarni ta'mirlash ishlari bajarilgan. Hududda barcha daraxtlarning qurigan shoxlarini tartibga solish, shakl berish va oqlash ishlari amalga oshirilgan, yo'laklarni ta'mirlash, bardyuralar o'rnatish va oqlash, gulzor va daraxtzorlarning yer qismini chopish va yumshatish hamda qish mavsumiga tayyorlash ishlari reja asosida olib borilgan.

“Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar: 2023 yil kuzgi mavsumi davrida ko'kalamzorlashtirish, manzarali, mevali daraxt, buta va ko'chatlarini ekish rejasiga asosan **2 200** tup ko'chat ekilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda **2 310 (1,05 %)** tup ko'chat ekilgan (institut hududida 2060 dona ko'chat ekildi, shundan **60** tup shumtol, **60** tup Virjin archasi, **200** tup qayrag'och, **240** tup terak, **150** tup gilos, **350** tup behi, **400** tup olma, **450** tup o'rik va **150** tup shaftoli daraxtlarni hamda Buxoro shahar, Namozgoh MFY, A. Jomiy ko'chasida joylashgan issiqlik manbai hududida **250** tup qayrag'och daraxtlarini ekish ishlari amalga oshirilgan) va joriy etilgan “Yashil makon” elektron platformasiga kiritilgan.

Institutning obodonlashtirish rejasini shakllantirishda, institut hududini inventarizatsiya (xatlov) dan o'tkazish uchun ekilgan ko'chatlarning ahvoli, parvarishi, ekish uchun bo'sh joylar, daraxtlarga shakl berish, oqlash, daraxtlarni sug'orish tizimida amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzilgan. Hududning iqlim xususiyatlardan kelib chiqib, ekish uchun mevali va manzarali daraxtlar, mavsumiy va ko'p yillik gul ko'chatlarini tanlash, sonini va ekish joylarini aniqlash, tartib bilan ekish kabi amaliyotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi hamda yil davomida har bir ekilgan daraxt parvarishi uchun fakultet va mas'ullarga birlashtirilgan. Obodonlashtiriladigan hududlarda mavjud irrigatsiya tarmoqlarini ishchi holatdagi ta'minlangan.

Institut o'quv-laboratoriya, talabalar turar joyi va yordamchi xo'jalik binolarining texnika hamda yong'in xavfsizligi me'yorlariga muvofiqligi bo'yicha xatlov o'tkazilib, o'quv-laboratoriya va o'quv binolari, talabalar turar joyi va qo'shimcha inshootlar yong'in xavfsizligiga qarshi ko'rgazmali o'quv qurollari, targ'ibot varaqalari va yong'inni o'chirish jihozlari bilan jihozlangan. Bino va inshootlar yong'in xavfsizligi jihozlari bilan ta'minlash bo'yicha Buxoro shahar favqulotda vaziyatlar boshqarmasi bilan kuz-qish mavsumiga tayyorligi bo'yicha hamkorlikda ishlar tashkil etilgan. Institutning binolaridagi tom qismlari tozalanib mavsumga tayyorlangan.

Institut o'quv-laboratoriya va o'quv binolari, talabalar turar joyi va qo'shimcha inshootlarda kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish uchun institut mas'ul xodimlari tomonidan kecha-kunduz olib boriladigan navbatchilik tashkil etilgan.

O'quv-laboratoriya, o'quv va talabalar turar joyi binolariga asosiy kirish joyida kuz-qishga tayyorgarlik bo'yicha yo'laklarning muzlab qolishini oldini olish maqsadida *qum* va *tuz* aralashmasi bilan to'ldirilgan **200 litrli** idish bilan ta'minlash choralari ko'rilgan.

Institutning barcha bino va inshootlari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, qozonxonalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlari to'liq yakunlanib, mavsumga tayyorligi to'g'risidagi mutasaddi tashkilotlar tomonidan **dalolatnomani** tasdiqlash ishlari amalga oshirilgan.

**6. Oliy ta'lim muassasasida o'quv binolari va talabalar turar joylarining yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holati (belgilangan muddatlarda)**

Institut hududida jami 3 ta o'quv-laboratoriya, 1 ta o'quv, 3 ta talabalar turar joyi va 1 ta sportzal binolari mavjud.

- 1-o'quv-laboratoriya binosi – 11076 m<sup>2</sup>, 5 qavatli, 1885 o'ringa mo'ljallangan;
- 2-o'quv-laboratoriya binosi – 14354 m<sup>2</sup>, 5 qavatli, 1640 o'ringa mo'ljallangan;
- 3-o'quv-laboratoriya binosi – 6647 m<sup>2</sup>, 5 qavatli, 1000 o'ringa mo'ljallangan;
- 4-o'quv-laboratoriya binosi – 2646 m<sup>2</sup>, 4 qavatli, 475 o'ringa mo'ljallangan;
- Sportzal binosi – 1071 m<sup>2</sup>;
- 1-talabalar turar joyi – 6037 m<sup>2</sup>, 7 qavatli, 600 o'rinli;
- 2-talabalar turar joyi – 2418 m<sup>2</sup>, 4 qavatli, 260 o'rinli;
- 3-talabalar turar joyi – 6624 m<sup>2</sup>, 4 qavatli, 750 o'rinli.

Institutda yangi 2023/2024 o'quv yiliga binolarni tayyorlash bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- Barcha binolarda joriy ta'mirlash ishlari olib borilgan;

- Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini barqaror ishlashiga tayyorlash bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan: institutning 4-o'quv va 1, 2-talabalar turar joyi binolarida yerto'lalar mavjud bo'lib, 4-o'quv binosi yer to'lasida isitish va sovuq suv tizimlari stoyaklarida 12 dona d 20 vintellar, 5 dona d 80 zadvijskalar, 1-talabalar turar joyi binosi yerto'lasida isitish va sovuq suv tizimlari stoyaklarida 36 dona d 20 vintellar, 10 dona d 100 zadvijskalar, 2-talabalar turar joyi binosi yer to'lasida isitish va sovuq suv tizimlari stoyaklarida 12 dona d 20 vintellar, 5 dona d 80 zadvijskalar mavjud bo'lib, tugunlarni profilaktik ta'mirlash, eskilarini yangisiga almashtirish, quvurlarni tegishli ranglarga bo'yash ishlari bajarilgan;

- Binolardagi oyna va eshik romlari holati: institutning barcha o'quv-laboratoriya binolari va talabalar turar joylari hamda yordamchi binolarining eshik romlari va akfa oyna romlari yangidan o'rnatilgan va yaxshi holatda. Kuz-qish mavsumida issiqlikni tejash maqsadida eshik va romlarni joriy ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgan. Mavjud binolardagi singan 15,93 m<sup>2</sup> deraza oynasi almashtirilgan;

- O'quv-laboratoriya, talabalar turar joylari, yordamchi xo'jalik binolaridagi mavjud yoritish lampalarini tejamkor lampalarga to'liq almashtirilganligi: institutning barcha o'quv hamda talabalar turar joylari binolarida barcha yoritish tizimida zamonaviy energiya tejovchi yoritish asboblari hamda lampalari o'rnatilgan, institut hududi yo'laklari va binolardagi koridorlarida o'rnatilgan energiya tejovchi lampalariga harakatlanish datchiklari o'rnatilgan;

- Yerto'la qismidagi muhandislik kommunikatsiya tizimlarini belgilangan tartibda tekshiruvdan o'tkazilganligi hamda tegishli ranglarga bo'yash ishlarini aamalga oshirilganligi: mavjud yerto'lalar doimiy ravishda tozalanib turiladi. Yerto'lalarda temir eshik o'rnatilgan bo'lib, doimiy qulflangan va muhrlangan holatda bo'ladi. Bu joylarga begonalarning kirishiga ruxsat berilmaydi. Yerto'lalarda joylashgan muhandislik

kommunikatsiya tarmoqlarining zadvijka va ventellari mas'ul xodimlar tomonidan profilaktik tekshiruvlardan o'tkazilgan va quvurlarni tegishli ranglarga bo'yash ishlari amalga oshirilgan;

- O'quv-laboratoriya binolari, talabalar turar joylari hamda boshqa binolarni ichki issiqlik tarmoqlarini yuqori bosim ostida yuvish ishlari amalga oshirilgan, tashqi issiqlik trassalarining 105 metr joyi izolyatsiya bilan qoplangan va issiqlik tizimlaridagi tugunlar (zadvijka va ventillari) reviziya qilinib, profilaktika ishlari olib borilgan;

- Binolarining auditoriyalaridagi eshik, stol, stul, doskalarning barchasi soz holatiga keltirilgan.

**7. Ijro intizomiga rioya qilish holati (Hisobotlar va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish)**

2023 yil davomida vazirlik va boshqa tashkilotlardan jami 942 ta hujjat kelib tushgan. Kelgan topshiriqlar o'z vaqtida bajarib kelingan. Ijro muddati kechikkan hujjatlar mavjud emas. Yil mobaynida moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida topshirilib, tegishli EDO tizimi platformasiga joylashtirilgan.

**Buxoro muhandislik-texnologiya  
instituti rektori:**

**S.G'.Siddiqova**